

O'ZBEKISTON RESPUBLKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“INVESTITSION FAOLIYAT” FAKULTETI

“Investitsion faoliyat” kafedrası

Himoyaga ruxsat etiladi
Kafedra mudiri
Prof. Alimardonov M.I

« ____ » _____ 2012 yil

Mavzu: «O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI TARMOQLARIGA XORIJIY
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA
SOLISH »

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Katta o'qituvchi Salixova N.

BAJARDI:

**«Jahon iqtisodiyoti va XIM» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchi IV kurs talabasi**
Abduvaliyeva Sanobar Abdugappar qizi

Bitiruv malakaviy ishi kafedra dastlabki himoyadan o'tdi ____sonli bayonnoma
« ____ » _____ 2012yil.

T O S h K E N T – 2 0 1 2

MUNDARIJA

KIRISH.	3
1-BOB XORIJIY INVESTITSİYALAR HAQIDA TUSHUNCHA, JALB QILISHNIN NAZARIY ASOSLARI... ..	10
1.1. Xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati... ..	10
1.2. Xorijiy investitsiyalarning turlari... ..	16
1.3. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari... ..	27
2-BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDAGI USTUVOR TARMOQLARDA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISH, TASHQI VA ICHKI INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.	28
2.1. O'zbekiston tarmoqlariga investitsion faoliyatni oshirishning amaldagi tahlili... ..	28
2.2. O'zbekiston mintaqalarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlar.	48
2.3. Xalqaro kompaniyalarni qabul qiluvchi mamlakatga xorijiy investorlarni jalb qilishning milliy rejimi... ..	63
3-BOB. O'ZBEKISTONNING TARMOQLARIDA IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISH TENDENSIYALARI.	87
3.1. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning huquqiy asoslarini takomillashtirish... ..	87
3.2. Iqtisodiyotda investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishini rivojlantirish chora-tadbirlari... ..	98
XULOSA VA TAKLIFLAR.	115
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	118
ILOVALAR	124

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p jihatdan to'g'ri va asoslangan investitsiya siyosatiga bog'liq. Mamlakatimizda investitsion faoliyatni iqtisodiy muhit shart sharoitlariga muvofiq rivojlantirish, ularni jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhadagi faolligini ta'minlash, milliy ishlab chiqarish jarayoninig modernizatsiyalashuvi hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan har yili amalga oshirib kelinayotgan islohotlarning kun tartibidagi asosiy manbalardan biri bo'lib, investitsiyalarni mamlakatning milliy iqtisodiyotiga jalb qilish masalsi turibdi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo sohasidagi yangi strategiyasi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyat, eksportni ragbatlantirish;
- xorijiy investitsiyalar jalb etish;
- tashqi savdoni erkinlashtirish;
- tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va boshqalardir.

Hozir O'zbekiston 140 dan ortiq davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan. Shulardan 42 tasi bilan o'zaro savdoda qulailik berish rejimi tadbiiq etilgan, 47 ta davlat bilan esa investitsiyalarni o'zaro himoya qilish bo'yicha bitimlar imzolangan.

O'zbekiston Respublikasi Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiet Banki, Halqaro valyuta Fondi, Islom taraqqiet banki kabi qator halqaro moliya tashkilotlarining a'zosidir.

Respublika bir necha xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar bilan ham yaqindan hamkorlik qilmoqda.

2012-yil uchun Investitsiya dasturini, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash dasturlarini jadal amalga oshirish bo'yicha ishlar holatini chuqur tahlil qilishga

alohida e'tibor berildi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 4,4 foizga o'sishi ta'minlanganligi qayd etildi. 127 ta yangi ishlab chiqarish ob'ekti foydalanishga topshirildi.¹

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida o'tgan yilda mavjud ishlab chiqarish korxonalarini tezkor rivojlantirish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda yangi, zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidladi.

2011 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 10,8 milliard dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi. Bu 2010 yilga nisbatan 11,2 foiz ko'p demakdir. O'tgan yili investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etganligi mamlakatimizda investitsiya jarayoni jadal faollashib borayotganidan dalolatdir. Iqtisodiyotning real sektoriga qariyb 2,9 milliard AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. O'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmida ichki manbalar – budjet, budjetdan tashqari jamg'armalar, Taraqqiyot va tiklanish jamg'armasi mablag'lari, korxonalarning o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari va aholi omonatlarining ulushi yuqoriligicha qolmoqda hamda 2011 yilda ularning o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 73 foizdan ortganini ko'rsatdi. O'zlashtirilgan sarmoyalarning 27 foizi tashqi investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi.²

2011 yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga pasaytirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini kengaytirish, bu bo'shab qolgan 80,3 milliard so'm mablag'ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkonini berdi.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston" qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari, avtomobil generatorlari va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarishga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirildi. "Zenit elektroniks" qo'shma korxonasida "Samsung" kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi, maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr changyutgichlar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Samarqand viloyatida "MAN" yuk avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazildi.³

Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo etish, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi yo'nalishi, Qandim konini o'zlashtirish va zamonaviy gazni qayta ishlash zavodini barpo etish kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga kirdi.

Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zona muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi, uning hududida yangi tashkil etilgan korxonalarda spidometrlar, avtomobillar uchun o'tkazgichlar, kompressorlar, raqamli televizion tyunerlar, energiyani tejaydigan lampalar, yoritish uskunolari, diodli lampalar, modemlar, polietilen va polipropilen quvurlar, kosmetika vositalari hamda tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston milliy avtomobil magistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdagi yo'lga zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruksiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaharlari aeroportlarining mahalliy yo'nalishlarga xizmat ko'rsatadigan yo'lovchi terminallari foydalanishga topshirildi.

Toshkent – Samarqand yo'nalishida "Afrosiyob" tezyurar yo'lovchi elektr poyezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu poyezdlardan foydalanish maqsadida temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo'yicha keng

ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yo‘llar qaytadan tiklandi, 68 kilometrdan iborat yangi temir yo‘llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temiryo‘l vokzallari rekonstruksiya qilindi va jihozlandi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yilning 27 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘lganligi ta’kidlandi. Bu hujjat yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etish, korxonalarni texnik va texnologik yangilash, zamonaviy transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojini jadallashtirish hamda shu asosda yangi ish o‘rinlari yaratish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Umumiy hisobda 2012 yil davomida 270 dan ortiq investitsion loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Ular qatorida Navoiy issiqlik energiyasi stansiyasida bug‘-gaz uskunalarini o‘rnatish va to‘qimachilik tarmog‘ida 25 dan ziyod ishlab chiqarishlarni barpo etish, shuningdek, “Shovot tekstil” (Xorazm viloyati) mas’uliyati cheklangan jamiyati negizida loyiha quvvati besh ming tonna ip gazlamaga teng yigirilgan ip ishlab chiqarishni tashkil etish, Toshkent viloyatida tekstil majmuasini tashkil etish (I bosqich), Qo‘qondagi “Bulut tekstil” qo‘shma korxonasining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish kabi loyihalar bor.

Sanoatda yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish 2011-2015 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini o‘rtacha yillik 109-112 foizga oshirishni ta’minlagan holda, mahalliy xomashyo va tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda jadal sur‘atlarga erishish, shuningdek, sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2011 yildagi 24,1 foizdan 2015 yilda 28 foizga yetkazish va sanoat mahsulotlari eksportining umumiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

hajmidagi ulushini 2011 yildagi 42,3 foizdan 2015 yilgacha 63,2 foizga yetkazish imkonini beradi.⁴

Mavzuni o'rganganlik darajasi. Investitsiyalarga aniq va ravshan ta'rif berishda hamda ularning mulkiy shakllari, kapital qo'yilmalar, kapital, kredit tushunchalarini farqlab, iqtisod fanlarining turli tarmoqlarida, amaliy faoliyatning turli yo'nalishlarida investitsiyalarning maqsadlari, harakatlar yo'nalishi, sohalar xususiyatlari, safarbar etish obyektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib va ahamiyatiga qarab, investitsiyalar borasida V.V.Aladin, Uilyam F.Sharp, Gordon Dj Aleksandr, Djeffri V Beyli, J.Fon. Neyman, O.Morgenshtern, G.Markovits, J.Tobin, V.Sharp, F.Modilyani, M.Miller va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar va o'z asarlarida ta'riflaganlar.

Ishning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya salohiyatini oshirish omillari, yo'llarini o'rganishdan iborat.

Maqsadga erishish yo'lida ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Tarmoqlararo investitsiyalarni nazarish-uslubiy jihatlarini o'rganish;
- Mamlakatda modernizatsiyalash sharoitida investitsiya salohiyatini oshirishning ahamiyati va unga ta'sir etuvchi omillar;
- O'zbekistonda investitsiya salohiyatini oshirish imkoni va yo'llarini aniqlash;
- O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni tartibga solish;
- Investitsiyalarni tarmoqlararo rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va tahlil qilish;
- Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalgam oshirilgan investitsion loyihalarni tahlil qilish;
- Sanoat tarmoqlarida investitsiyalarni takomillashtirish yo'llarini o'rganish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalarni o'rgangan holda, O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni davlat

- 7 -1321/3/2014_____

⁴ Manba: [UzA](#)

tomonidan tartibga solish, tarmoqlarda investitsiya salohiyatini oshirish ilmiy ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Qonuniy va me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asar va ma'ruzalari, mamlakat hukumatining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qarorlari, "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlarning huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarning jalb qilishni rag'batlantirish borasidagi qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2007 yil 4 yanvarda "Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Farmoni, "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Farmoni, shuningdek mamlakatimiz va xorijiy mutaxassislarning investitsiyalarga, Jahon iqtisodiyotiga milliy iqtisodiyotga oid asarlar, vaqtli nashrdagi maqolalar, internet saytlar ilmiy ishning uslubiy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- Xorijiy investitsiyalarni o'rgangan holda O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni sanoat tarmoqlariga yo'naltirish o'rganilgan;
- Hozirgi bosqichda O'zbekiston Respublikasida tarmoqlardagi investitsion salohiyatni oshirish imkoniyatlari va natijalari o'rganilgan;
- O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida xorijiy investitsiyalarni ustuvor tarmoqlarga yo'naltirish va erishilgan natijalar o'rganilgan.

Tadqiqot natijalarining amali ahamiyati va tadbiqu. Ushbu bitiruv malakaviy ishida keltirilgan xulosalar va takliflardan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimini rivojlantirish amaliyotida, shuningdek “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” , “Xorijiy investitsiyalar” , “Investitsiya” , “Milliy va jahon iqtisodiyoti” , “Xalqaro diplomatik munosabatlar” kabi kurslardan ma’ruza matnlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ish tuzilishi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi kirish, 3ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishda investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solish, xorijiy investitsiyalarni O’zbekiston iqtisodiyotida ustuvor tarmoqlarga jalb qilish imkoniyatlari, rivojlantirish ko’rsatkichlari, so’nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar tahlil etilgan, kelgusida amalga oshirish ko’zda tutilgan investitsiyalar, shuningdek, O’zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida sanoat salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari va ahamiyati aniqlangan. Shu bilan birga iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida eksport va import salohiyatini ko’rib o’tilgan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi.

Ishning xulosa qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, nazariy va amaliy ahamiyatga ega xulosa va takliflar berilgan.

I BOB.

XORIJIY INVESTITSİYALAR HAQIDA TUSHUNCHA, JALB QILISHNINH NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilingan bo'lib, bugungi kungacha ancha takomillashtirildi. Investitsiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha, "investitsiya" bu iqtisodiy samara (daromad, foyda) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Bu iqtisodiy ta'rif investitsiyalarning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to'laligicha tasdiqlaydi.

"Investitsiya" atamasi lotin tilida "invest" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qo'yish", "mablag'ni safarbar etish", "kapital qo'yilmasi" ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib, qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiyalarni nazariy uslubiy jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, investitsiyalar nazariyasi o'zining tarixiy rivojlanish jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. V.V.Aladinning fikricha, investitsiyalarning dastlabki belgilarini Avstriya iqtisodchilari maktabining ilmiy ishlarida ko'rish mumkin.⁵

Iqtisodiy lug'atda "investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo'yimalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi"⁶, - deb ta'riflangan.

- 10 -1321/3/2014—

⁵ Аладын В.В. Инвестиционная деятельность субъектов Российской Федерации. /В.В. Аладын.-М:Социум, 2002.С.17.

⁶ Финансово-кредитный словарь. Т.1. – М.: «Финансы и статистика», 1984.-С.470.

Uilyam F.Sharp, Gordon Dj Aleksandr, Djeffri V Beyli investitsiyalar haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: mumkin qadar kengroq ma'noda aytganda "investitsiyalar" – bu "kelajakda kattaroq" – bu "kelajakda kattaroq foydaga ega bo'lish uchun buguncha puldan ajralishdir"⁷. Mualliflar, pul mablag'larini qo'yilmalar sifatidagi – investitsiyalar va bu pullardan kelajakdagi ko'proq summa olish uchun bugun voz kechish deb qaraydi. Bizningcha bunday fikrlash bir tomonlama bo'lib, investitsiyalar nafaqat pul mablag'lari ko'rinishidagi pul daromadlari bo'lib qolmay balki, boshqa moddiy yoki nomoddiy ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Shuningdek, mualliflar investitsiyalash va jamg'armalar (savings) o'rtasidagi farqni ko'rsatib, aytishadiki, jamg'arma "iste'molga ajratilgan" qiymatdir. "Investitsiyalash" tushunchasi kelajakda milliy mahsulotni ko'paytirish bilan bog'liq real investitsiyalashgacha bo'lgan jarayonni ifodalaydi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

- Avaylangan (birlamchi jamg'arilgan) kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik ob'ektiga joylashtirish;
- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Investitsiya kiritishda:

1. Investitsiya faoliyati sub'ektlarining mustaqilligi va tashabbuskorligi;
2. Kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqaro o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);
3. Qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat

ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan harajatlardir.

Investitsiyalarning xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aksiya, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin.

Investitsiyaga ketgan harajatlarning miqdori ikki omilga bog'liq:

Birinchisi – sof foydaning kutilayotgan me'yori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan harajatlardan olishni mo'ljallaydi;

Ikkinchisi foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur bo'lgan pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan baho.

Agar, kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda me'yoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Investitsiya harajatlari foyda keltirishini aniqlashda real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavkasi narxlar darajasini o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasini ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4% (16%-12%) tashkil etadi. Agarda, bu miqdor kutilayotgan sof foyda me'yoridan past bo'lsa, investitsiya xarajatlari o'sib boradi.


Investitsiya talabining egri chizig'i istalgan investitsiya hajmi (I) va real foiz stavkasi miqdori (r) o'rtasida bog'liqlik bo'ladi. Real foiz stavkasi, ya'ni pul kapitalini qarzga olish bahosi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashni xoxlovchilar shuncha kam bo'ladi va aksincha real foiz stavkasi qanchalik past bo'lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham investitsiya funktsiya grafigi quyiga qarab og'ma bo'ladi. (1- rasm)

1-rasm

Investitsiya funktsiyasining grafigi

Foiz

Stavkasi



Investitsiya hajmi

Makroiqtisodiy siyosatda foiz stavkasi bilan investitsiya hajmi o'rtasidagi mavjud bog'liqlik hisobga olinadi va keng foydalaniladi. Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim quroli hisoblanadi. Davlat uni o'zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi. Foiz stavkasining ko'tarilishi pulning qimmatlashuvi va unga bo'lgan talabning qisqartirayotganini bildiradi. Bu esa investitsiya harajatlarini qisqartirishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmini pasayishini bildiradi.

Investitsiyalashda aylanma kapitalga ustuvorlik berilishida avval kapital jamg'arish davrida pulni tez to'plash uchun uni kapital aylanishi uni tez sohalarga joylashtirilishi yuz beradi, chunki bunda yuqori foyda me'yori yuzaga keladi. Foyda me'yori yuqori joyda esa, uni kapitallashtirish imkoni katta bo'ladi. Bu omil ham xususiy sektorda pulni aylanma kapitalga aylantirish uchun qulaylik yaratadi.

Davlat xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

1. Moliyaviy:

- Jadallashtirilgan amortizatsiya;
- Soliq imtiyozlari;
- Subsidiyalar;
- Qarzlarni berish;

- Kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash.

2. **Nomoliyaviy:**

- Yer uchastkalari ajratish;
- Zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash;
- Texnik yordam ko'rsatish.

Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Chet el investitsiyalari – chet mamlakatlarining milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyalarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir:

1) **Iqtisodiy omillar:**

- Ishlab chiqarishni rivojlanishida iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;
- Jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);
- Ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;
- Jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o'sib borishi (AQSh transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSh tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);
- Ishlab chiqarishning baynalmillashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;
- Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.


2) Syosiy omillar:

- Kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy hududlar (EIH), offshor hududlari va boshqalar);
- Rivojlanayotgan mamlakatlarda industrilashtirish siyosatini olib borish;
- Iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);
- Bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Investitsiyalarni zamonaviy texnika va texnologiya bilan qurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarni tiklashning asosiy vositasidir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi.

2-rasm

Xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar⁸



1.2. Xorijiy investitsiyalarning turlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rnini bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul boyliklari, omonatlar, depozit, sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori turli xil bo'lib, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning turlari bozor munosabatlariing nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mulliflik huquqlari, "nau-hau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. Yalpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni qo'shadi: Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratiladi. Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyotda barqarorlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga barobar va iqtisodiyot shu yilda qancha kapital iste'mol qilgan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha ishlab chiqarish kerak bo'ladi.

Iqtisodiy faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo'lgan holdagi vaziyat xosdir, ya'ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganda nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishirasi manfiy bo'lib, uning mutlaq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga nisbatan kam bo'ladi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo'jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30%dan oshdi. Bu ko'rsatkich jahon savdosining o'sish sur'atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o'zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg'arilgan zaxiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo'ladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlardan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqarish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi. Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya'ni xalqaro investitsiyalar kiradi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o'rtasida xarakatda bo'lgan investitsiyalardir.

Real investitsiyalar real kapitalning o'sishini, ya'ni ishlab chiqarish mablag'lari, moddiy boyliklarning o'sishini ta'minlashi zarur.

Molyaviy investitsiyalar deb aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun sarflangan qo'yilmalarga aytiladi. Bu qo'yilmalar

buyum ko'rinishidagi kapitalning o'sishini o'zida mujassam etmasada, lekin foyda, spekulyativ foyda ya'ni qimmatli qog'ozlar kursi o'zgarishi natijasida vujudga keladigan foyda keltiradi. Moliyaviy investitsiyalar ikki xil ko'rinishida bo'ladi. Aksiyalarni sotib olish real moddiy ko'rinishdagi kapitalni yaratmaydi. Lekin kelajakda spekulyativ ko'rinishda foyda olish mumkin bo'ladi. Aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'ni ishlab chiqarish uchun, asbob-uskunalar sotib olish uchun sarflanganda u real kapitalga aylanadi va real investitsiya ko'rinishini oladi. Shu sababdan qimmatli qog'ozlarni olda-sotdi operatsiyalari natijasida olinadigan spekulyativ foyda keltiruvchi moliyaviy investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida pul ko'rinishidagi real moliyaviy investitsiyalarni farqlash lozim. Fan-texnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishni eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadi sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino-inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiy harakat yig'indisidagi ulushi investitsiyalarning texnologik tarkibini tashkil etadi. Qayta ishlab chiqarish tarkibi investitsiyalarning qanday maqsadlarga yo'naltirilganligi; yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishga, rekonstruksiya va yangi texnika bilan qayta qurollantirishga jalb qilingan harajatlarni umumiy harajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi. Davlat sektorida real investitsiyalar sarfi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital qo'yilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi. Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar dastlabki bozor infratuzilmasini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi.


Investitsiyalarni samaradorligini oshirish asosiy kapitalni aktiv elementlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi. Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: uushli (aktivlar) va qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'laroq moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portfel investitsiyalar deb ataladi, chunki bu holda investorning asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlar va bank depozitlariga, uzoq muddatga jalb qilinadigan qo'yilmalardir. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi, kapitalni noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat hollarda real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatlarda ko'proq tarqalgan.

Investitsiyalarda qatnashish harakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar – investorni o'z moliyaviy mablag'larini joylashtirish obektini tiklash imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar – tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqa yordamida amalga oshiriladi.

Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi) bo'ladi. Masalan, oddiy aksiyalar umuman biror-bir muddat bilan cheklanmaydi. Depozit sertifikati (olti oy muddatga berilishi mumkin) – bu qisqa muddatli qo'yilmalar vositasidir, obligatsiyalar esa (masalan, 20 yilda qaytarish muddati bilan) uzoq muddatli qo'yilmalar vositasidir.

Mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarning va fuqarolarning mablag'larni tadbirkorlik faoliyati obektlariga qo'yilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari – bu davlat tomonidan milliy daromadning davlat byudjetining mablag'lari ko'rinishida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi uchun sarflanayotgan mablag'lardir. Investitsiya munosabatlari shu darajada murakkab va ko'p qirraliki, ko'pincha davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Bunday aloqa investor va huquq va talablarni davlatga topshiranda yaqqol ko'rinadi. Xorijiy investitsiyalar ham davlat yoki xususiy investitsiyalar shaklida bo'lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat investitsiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqacha shakldagi qarzlar berishi mumkin. Bunday munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Ikkinchi shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalar yoki fuqarolar boshqa mamlakatning tegishli subektlariga beradigan tegishli investitsiyalar tushuniladi.

Xorijiy investitsiyalarning tasniflanish belgilari.



Hududiy joylashtirish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Hozirgi kunda bir qator mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi investitsiyalardan tashqari ijtimoiy-madaniy sohalar uchun, fan tarmoqlari uchun, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohaları uchun investitsiya mablag'lari ajratilmoqda. Bu investitsiyalarning alohida bir ko'rinishi bo'lib, asosan kishilarning sog'ligini saqlash, aqliy va ma'naviy rivojlanishi uchun, hayotini uzaytirish hamda kishilarning ish faoliyatida ijodiy qatnashishi va uning samaradorligi oshishi uchun sarflanadi.

Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat obektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblansa, investitsiya faoliyati subektlarning investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui investitsiya faoliyati deb yuritiladi. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko'rinishidir, shuning uchun ham tadbirkorlikka xos bo'lgan belgilar, ya'ni mulkiy mustaqillik, tashabbuskorlik va tavakkalchilik unga ham xos bo'lgan xususiyatdir.

Investitsiya faoliyatining ob'ekti moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlari hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining sub'ektlaridan biri investor bo'lib, u o'z mablag'larini, qarzga olgan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o'ziga xos faoliyat sub'ektlarining yana bir katta guruhi mavjud bo'lib, ular investitsiya faoliyati ishtirokchilari deb, yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlash bo'lib hisoblanadi. Investorlar buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi ham bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar (investorlar) quyidagi belgilari bo'yicha tavsiflanadi:

- Joriy faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar rovida sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalardagi aksiyadorlik jamiyatlar namoyon bo'lsalar, individual investorlar rovida fuqarolar namoyon bo'ladi.
- Investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar. Ular o'z oldiga kompaniyalarni boshqarish huquqini olishni maqsad qilib qo'yasilar. Buni ular boshqa kompaniyalar aksiyalarining nazorat paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalining katta qismiga egalik qilish orqali amalga oshiradilar.


Maqsadiga ko'ra xorijiy investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga bo'linadi.

Bevosita investitsiyalar – bu kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shaxobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI) asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo'ladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni BXIlar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksionerlar kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

4-rasm

BXIlarning mamlakatlar bo'ylab taqsimlanishi⁹



Bu ko'rsatkich AQShda 10%, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20%ga yaqin, Germaniyada 25%dan 50% gacha, Ozbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning bosqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun mas'uliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularning tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

BXI borasidagi yana bir yondashuv bu turdagi investitsiyalarni faqat mulkchilik ko'lami bilan, ya'ni aksionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Unga muvofiq BXI larni:

- a) Xorijda aksiyalarni sotib olish orqali;
- b) Foydani qayta investitsiyalash yordamida;
- c) Firma ichki qarzlari va qarzдорliklari orqali amalga oshirish mumkin.

Bevosita investitsiyalar asosan ikki guruhga ajratiladi:

1. Transkontinental kapital qo'yilmalar;
2. Transmilliy qo'yilmalar.

Transkontinental kapital qo'yilmalar – investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoiti bo'lgan boshqa bir davlat yoki qit'aga investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil qilish. Transmilliy kapital qo'yimlari esa asosan qo'shni davlatlarga amalga oshiriladi.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadga yo'naltiriladi:

- Yangi kompaniya tashkil etish;
- Bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

Portfel investitsiyalar – shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish huquqini bermaydi. Xorijiy portfel investitsiyalarning barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firma

uchun muhim ahamiyatga ega. Bu turdagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar.

Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. *Aksioner qimmatbaho qog'ozlari* – bozor muomalasidagi pul xujjati bo'lib, xujjat egasining ushbu xujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqga egaligini tasdiqlaydi;

2. *Zayom qimmatbaho qog'ozlar* – bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxaga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Zayom qimmatbaho qog'ozlari quyidagi shakllarda chiqariladi:

- *Obligatsiya* (oddiy veksel, qarz majburiyati) pulli dastak bo'lib, uning sohibiga kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi yoki sharnoma asosida belgilangan O'zgaruvchan pul daromadini olish huquqini beradi;

- *Pul bozori dastaklari* – pullik dastak bo'lib, uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi.

Bu dastaklar bozorda pasaytirilgan narxlarda sotiladi, narxni pasaytirish darajasi foiz stavkasining katta-kichikligiga va qarzni qoplash muddatiga bog'liqdir. Bular g'azna veksellari, depozit sertifikatlari va boshqalar kiradi.

Moliyaviy derivatlar- bozor narxiga ega bo'lgan pulli dastak bo'lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bulagga optionlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Nota (qarz majburiyati) – qisqa muddatli (1-6 oy) pulli dastak bo'lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o'z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarqalgan notalar – Yevronotalardir.

Portfel investitsiyalarning bevosita investitsiyalardan avzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatbaho qog'ozlar tezdanaqd valyutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining

asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda majburiy investor o'z mablag'larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaxo qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Ma'lum bir ma'noda portfel investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yo'li bilan foyda ko'rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatbaxo qog'oz turi ham hech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs o'sishiga qarab istalgan foydani berishi kerak bo'ladi.

Quyida portfel va bevosita investitsiyalar o'rtasidagi farq jadval ko'rinishida tasvirlab berilgan. Jadvalda portfel va bevosita investitsiyalarni kapital chiqarish maqsadi, maqsadga erishish yo'llari, maqsadga erishish usullari, daromad shakllari kabi belgilari keltirilgan.

5-rasm

Bevosita portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlar.

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kapital Chiqarishdan Asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatbaxo qog'ozlarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	• Xorijiy firmaga to'liq egalik qilish; • Aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan	Xorijiy firma aksioner kapitalning 25%dan (AQSh, Yaponiya, Germaniyada

	kompaniya aksioner kapitalining 25%dan kam bo'lmasligi kerak)	10%dan) Kamina sotib olishi
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividentlar, foizlar

1.3. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari.


Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda, qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Invaesitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqarorlashtirish korxonalar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun bir qancha tadbirlar hamda investitsiya dasturlari va loyihalarini ishlab chiqilmoqda. Hozirgi vaqtda investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish investitsiya siyosatining asosan quyidagi yo'nalishlariga amalga oshirilmoqda ya'ni:

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish, xorij investitsiyalari uchun , tovarlarni eksport qilishda o'z daromadlaridan foydalanishda birqancha imtiyozlar tartibini joriy etish;
- Xorijiy investitsiyalarni asosan kapital manbalarini Respublika iqtisodiyotiga jalb qilish uchun huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;
- O'zbekiston jahon talablari darajasidagi texnikalar olib keladigan iqtisodiyot tizimni rivojlantirishga yordam beradigan xorij investitsiyalariga nisbatan ochiq eshiklar siyosati o'tkazish.

Hozirgi kunda Respublikamizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjud:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg'armalari;
2. Bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish;
3. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga moliyalashtirish;
4. Xorijiy investitsiyalar.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari¹⁰



So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o'zgardi. Byudjet tomonidan investitsiyalarni moliyalashtirishga umumdavlat va mahalliy byudjetlarning loyihalarini moliyalashtirish nazarda tutiladi. Byudjetdan tashqari manbalarga esa o'z moliyaviy mablag'lari, qarzga olgan mablag'lari, jalb qilingan moliyaviy mablag'lar, byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari va chet el investitsiyalari kiradi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak, 2010-yilda umumiy investitsiyalar hajmi davlat byudjeti mablag'lari 7,4 foiz; chet el investitsiyalari 28,8 foiz; korxonalar va aholi mablag'lari 47,3 foizni tashkil etgan.¹¹

Ushbu raqamlar 2011 yilda mos ravishda davlat byudjeti mablag'lari 5,1 foiz; chet el investitsiyalari 25,3 foiz; korxonalar va aholi mablag'lari 49,0 foiz va boshqa manbalar 20,6 foizni tashkil qilishi bashorat qilingan edi.

2005-2011 yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, foizda¹²

Moliyalashtirish manbalari	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Davlat byudjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

2011-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million AQSh dollaridan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2010 yilga nisbatan 11,2 foiz ko'p demakdir. Investitsiyalarning yalpi ichki maxsulotdagi ulushi 9 foizni tashkil etgani mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.¹³

Mikrofirma va kichik korxonalar uchun shu yili yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Buning natijasida bo'shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so'm mablag'ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkoni paydo bo'ldi.

- 30 -1321/3/2014_____

¹² R.X. Karalbayeva//Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.T.: 2011

¹³ Manba: Gazeta.uz

O'tgan yili faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e'tibor qaratildi.


Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Kapital qo'yimlarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilmoqda. Jami investitsiyalarning 73,5 foizidan ortig'i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilgani ayniqsa muhimdir.

Monetar siyosatning kuchaytirilishi, korxonalar moliyaviy ahvolidan barqaror emasligi korxona va jismoniy shaxslar mablag'laridan moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining hajmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning korxonalar uchun samarali bo'lishiga iqtisodiy infratuzilmaning markaziy bo'g'ini bo'lgan soliqlar mexanizmi hisoblanadi. Chunki soliqlar ham, har bir korxona miqyosida tuzilgan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samarasi taqdirini hal qilishda asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda ham investitsiya loyihalarini tuzish va moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitni yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Ularning negizida ikkita asosiy omil yotadi:

1. Iqtisodiy barqarorlik;
2. Inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valyuta so'mning to'lov qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya loyihalarini tuzish va ularni moliyalashtirish omillari¹⁴



Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha ishlab chiqildi:

- Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA) – moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari – TIH – ishchi hujjatlar;
- Dastlabki texnik iqtisodiy hisoblash (DTIX) – moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari – TIH – ishchi hujjatlar;
- Ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarini ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoralarning – Shaharsozlik kodeksitalablariga, normative hujjat talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor konyukturasi darajasiga muvofiqligi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

DTIA bo'yicha – iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlanishini ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek xom ashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori konyukturasini ta'minlash nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan.

DTIH bo'yicha – ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va "boshqa tarmoqlar"ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan oydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan DTIA (DTIH) hamda "Davarxitektqurilish" qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing kontsepsiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori konyukturasi, shuningdek tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda ko'rib chiqiladi.

Tashabbuskor tomonida talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan yakka tartibda tayyorlanayotganlarning to'liq va masaffal spetifikatsiyasini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalarining

narxlarning cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA (TIH) ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH) ni ishlab chiqarishda prognozlanayotgan uch besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan – DTIA (DTIH) va “Davarxitektqurilish” qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligiga hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha – loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, shuningdek loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha – loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

5. Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan - DTIA (DTIH) va “Davarxitektqurilish” qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorligining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda. Moliyalashtirishni byudjet mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalgam oshirish nazarda tutilayotgan ob'ektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to'lash uchun mablag'lar hisobiga uzishni nazarda tutadigan byudjet mablag'larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi xulosalar mavjud bo'ishi kerak.

Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda xulosa huquqiy voris bo'lgan tashkilot tomonidan beriladi.

9-rasm

Vakolatli ekspertiza organlari¹⁵

Vakolatli ekspertiza organlari	Xulosa natijasi (tavsiya etildi/rad etildi)
Iqtisodiyot vazirligi	
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	
“Davarxitektqurilish” qo'mitasi	
Moliya vazirligi	
Vakolatli bank (banklar)	

Investitsiya loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishi yuqoridagi vakolatli ekspertiza organlarida belgilanga tartibda ekspertizadan o'tadi.

Davlat o'zia yuklatilgan funksiyalarni amalga oshirishda ya'ni moliyalashtirishni asosan iqtisodiy, mudofaa, huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda qo'llaydi bularga esa quyidagilar kiradi:

- Minimal harajatlar bilan maksimal iqtisodiy va ijtimoiy samara olish;
- Byudjet resurslaridan samarali foydalanish;
- Byudjet mablag'larini ko'rilishi va pudratchi tashkilotlarga belgilangan rejaning bajarilishi bo'yicha berilishi.

Birinchi tamoyilning mohiyati shundan iboratki, byudjet mablag'lari mazkur loyihaning samaradorligini ta'minlash zarur bo'lganda beriladi.

- 35 -1321/3/2014_____

¹⁵ R.X. Karalbayeva//Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.T.: 2011

Investitsion siyosatga ko'ra kapital qurilishga mablag'larni ajratish ma'lum shartlar asosida amalga oshiriladi. Bu narsa ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun qilinadi.

Ikkinchi tamoyilning xarakteri shundan iboratki, konkret qurilish yoki ob'ektlarning moliyalashtirilishining amalga oshirilishi joriy yilning davlat byudjetida tasdiqlangandan so'ng bo'ladi va shu bilan birga resurslardan foydalanishni nazorat qilish yo'lga solinadi.

Uchinchi tamoyili byudjet resurslarini belgilangan rejaning bajarilishi uchun moliyalashtiriladigan mablag'lar pudratchi tashkilotlariga va qurilish tashkilotlariga beriladi. Ushbu mablag'larning taqsimlovchi sifatida buyurtmachi ya'ni investorlar hisoblanishi mumkin.

Qaytarilmaydigan moliyalashtirish ko'pincha ishlab chiqarish faoliyatining yangi yo'nalishlarini rivijlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, davlat byudjetidan konversiya, mudofaa, ekologiya va boshqa tijorat qaytinga mo'ljallangan ob'ektlarga qaytarilmaydigan mablag'lar beriladi. Qaytariladigan moliyalashtirishga mo'ljallangan mablag'lar amalga oshiriladigan loyihaning tijorat samarasiga bog'liq bo'ladi. Moliyalashtirish yo'nalishlarini ochish uchun (davlat) Markaziy bank tomonidan Moliya vazirligiga (kapital) davlat byudjeti mablag'lari kredit shaklida beriladi. Moliya vazirligi olingan mablag'larni tijorat banklari orqali buyurtmachilar o'rtasida taqsimlaydi. Qarz majburiyatlari to'g'risidagi shartnoma buyurtmachi, Moliya vazirligi va tijorat banklari o'rtasida tuziladi. Qaytariladigan moliyalashtirishda buyurtmachi garovga narsa qo'yishi talab qilinadi. Qaytarish sharti bilan olingan byudjet mablag'i uch tomonlama shartnomada ko'rsatilgan muddatda Moliya vazirligiga qaytariladi. Moliya vazirligi esa bu kreditni Markaziy bankka kelishilgan muddatda qaytarib beradi.

Prezidentimiz 2010 yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan umumiy investitsiyalar YaIMning qariyb 6,8 foizini tashkil qilmoqda. 2010-yilda 61,8 trln. so'mlik yalpi ichki mahsulot (YIM) ishlab chiqarilib, uning real o'sishi 2009-yilga nisbatan 8,5 foizni tashkil qildi.

YIMning yuqori sur'atlarda o'sishi:

- iqtisodiyotning real sektoriga hamda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining o'sishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kengayishi;

- eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va o'tgan yilda qulay tashqi konyunkturaning shakllanishi natijasida eksport hajmining o'sishi;

- aholi bandligi va real daromadlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi hisobiga ta'minlandi.¹⁶

O'zbekiston kapitalni import qiluvchi mamalakat sifatida jahon maydoniga chiqar ekan, bir qator muayyan manfaatlarni ko'zlaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamalakatga xorijdan yangi texnologiyalar, uskunalar, "nau-hau"ni olib kirishga, chet ellik mutaxassislar, ekspertlar va maslahatchilarni jalb qilish orqali mahsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishga erishish mumkin.

Viloyatlar kesimida tarmoq Dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalarga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida – neft va gaz sanoatini modernizatsiyalash dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar.

2. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida – Xandiza konida polimetall rudasini qazib olish hamda qayta ishlash majmuasi va boshqalar.

3. Qashqadaryo viloyati Sho'rtan GKKda tozalangan metandan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish va Talimarjon GESini kengaytirish uchun quvvati 450 MW bo'lgan ikkita gaz-bug' uskunasi o'rnatish.

4. Navoiy viloyatida ammiak va korbamid ishlab chiqaradigan qurilish.

5. "Navoiy" erkin industrial zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar va boshqalar.

6. Navoiy va Samarqand viloyatlarida – Zarmiton oltinkon zonasida qazib olish hamda qayta ishlash majmuasi (NKMK) va boshqalar.

7. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida – yengil sanoati va charpoyabzal sanoatini modernizatsiyalash dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar.

8. Toshkent viloyatida – Dji Em Pauertreyn avtomobil dvigellarini ishlab chiqarish zavodi (Uzavtosanoat) va boshqalar.

Investitsion soliq krediti korxonalarning foyda solig'i va mahalliy soliqlardan beriladi.

Investitsion soliq krediti soliq to'lovchi korxonalarga quyidagi maqsadlardan foydalanish uchun beriladi:

- Ilmiy tekshiruv ishlarini amalga oshirish;
- Ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish;
- Nogironlarga ish joylarini tashkil qilish;
- Atrof-muhitni tozalash (zaxarli chiqindilardan);
- Korxona tomonidan innovatsion ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Investitsion soliq kreditini olish uchun korxona ariza va kerakli hujjatlarni topshirishi kerak. Agar mas'ul olgan kredit haqiqatan kerakligini xulosa qilsa, soliq to'lovchi korxona bilan shartnoma tuziladi. Shartnomada kredit miqdori, foiz stavkasi, muddati, garov, soliq, kreditni qaytarish tartibi kelishib olinadi. Kreditni olgan korxona soliq to'lash shartnoma muddati tugaguncha kamaytiriladi. Korxona olgan kreditini va foizini to'liq to'lagandan so'ng shartnoma bekor qilinadi.

Qarzga olingan manbalarning asosiysi bank krediti hisoblanadi. Kredit bank tomonidan qaytarib berish sharti va foiz stavkasi talab-taklif, inflyatsiya darajasi, depozitlarga foiz stavkasi va boshqalar ta'sir ko'rsatadi. Bank krediti uzoq muddatli (1yildan 5 yilgacha) va qisqa (1 yilgacha) muddatli bo'lishi mumkin. Uzoq muddatli kredit asosan investitsion kredit deb yuritiladi. Chunki, u korxonaning ishlab chiqarilishni kengaytirishga o'z mablag'larining yetishmasligidan o'rta chiqadi. Korxona bemalol ishlab chiqarishni rivojlantirib, bir necha yildan so'ng kreditni qaytarishi mumkin. Lekin moliyalashtirishning bu turi keng tarqalmagan. Chunki inflyatsiya darajasi ancha yuqori va foiz stavkasi

ham baland. Bundan tashqari, uzoq muddatli kreditni olish uchun korxona bankka buxgalteriya balansi, biznes reja va foyda hamda zararlar haqida hisobot topshirilishi lozim.

Mamlakatimizda asosan qisqa muddatli mikro kreditlar rivojlangan. Bu kreditlar ishlab chiqarishni zamonaviylashtirmasada, korxonalarning foyda olishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mikrocreditlar asosan tadbirkorlarning rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Bank kreditidan tashqari tijorat krediti, qishloq xo'jaligi krediti, boshqa korxonalardan loimadigan kreditlar ham mavjud. Hozirgi paytda quyidagi kredit turlari mavjud:

Bank krediti – bu kredit turi hozirgi zamonaviy, iqtisodiy faol jamiyatda eng asosiy o'rinni egallaydi. Kreditor sifatida Tijorat banki yoki moliya bank muassasalari qatnashishlari mumkin. Kredit oluvchi sifatida esa biznes bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Bunda kredit oluvchining iqtisodiy holati e'tiborga olinmasdan, uning qonuniyligi va kreditni qaytarib berish layoqatliligi kerak.

Iste'molchi krediti – bunda kredit oluvchi jismoniy shaxs hisoblanadi, asosan aholi o'zining iste'moli uchun oladigan kreditidir.

Tijorat krediti – bu turdagi kredit yuqoridagi kreditlardan tubdan farq qilib, kredit beruvchi va oluvchi sifatida tadbirkorlar va biznesmenlar bo'lishi mumkin.

Kredit – pul shaklida berilmasdan faqatgina tovar shklida beriladi va olinadi hamda vekselda muomala qilinadi.

Veksel – bu yozma ravishdagi qarz majburiyati bo'lib, qonuniy hujjatlashtirilgan va qarz beruvchi qarz muddati yetilganda, uni talab qilib olish huquqiga ega ekanligini bildiruvchi qog'oz.

Davlat krediti – bu turdagi kreditda kredit oluvchi va beruvchi sifatida davlat qatnashadi. Davlat byudjet fondini qoplash uchun chiqargan obligatsiya, veksell va boshq aqimmatli qog'ozlarni yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarib olish sharti bilan sotadi, ya'ni kredit oladi.

Xalqaro kredit – bu davlatlar orasidagi o'zaro kreditlashdir, ya'ni bir-biriga kredit berish xalqaro kredit munosabatlarida qatnashuvchi sub'ektlar bo'lib, tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, hukumatlar, yirik korporatsiyalar hamda xalqaro va regional moliya kredit tashkilotlari hisoblanadi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishda bank krediti ishtirokini mavhum tarzda, iqtisodiyotda joriy etigan huquqiy me'yorlar va o'tkazilayotgan investitsiya siyosatidan, investitsiya faolligi darajasi hamda moliyalashtirishda qo'llaniladigan mexanizmlardan, amaldagi soliqqa tortish talablaridan, kafolatlar va imtiyozlar tizimi hamda bank-moliya infratuzilmasining rivojlanganlik darajasidan ayri holda baholab bo'lmaydi. Iqtisodiyotning real sektorlaridagi investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarzida bank kreditining roli, asosan jamg'armalarning o'sish sur'ati, pul, valyuta hamda kapital bozorlarining holati bilan aniqlanadi va belgilanadi.

10-rasm

O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi (jamiga nisbatan % hisobida)¹⁷

T/r	Manabalar	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.
	Jami investitsiyalar	100	100	100	100	100
1.	Markazlashgan investitsiyalar, shu jumladan	23,4	22,5	20,1	20,0	20,1
1.1	Byudjet mablag'lari	12,7	10,7	9,0	8,9	8,1
1.2	Byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari	4,7	6,9	6,1	7,6	7,6
1.3	Hukumat kafolati ostida jalb qilingan kreditlar	6,0	5,0	5,0	3,5	4,2
2.	Markazlashmagan investitsiyalar, shu jumladan	76,6	77,5	79,9	80,0	79,9

2.1	Korxona mablag'lari	48,7	48,3	47,6	43,6	36,3
2.2	Tijorat banklari mablag'lari	2,9	3,4	3,1	7,9	5,2
2.3	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar vakreditlar	13,2	14,1	17,8	25,8	27,9
2.4	Aholi mablag'lari	11,8	11,7	11,3	10,8	10,6

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1317 sonli Qaroriga asosan:

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklarining ishtirokini yanada faollashtirish maqsadida 2010-yilda jami 3,2 trln, so'mlik kredit esurslarini ajratish belgilab berilgan. 2010-yilda tijorat banklari tomonidan korxonalar va tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan investitsion kreditlar miqdori 3,1 trln. So'mni tashkil etib, yillik rejaning 96 foizi bajarildi.

Kuni kecha Toshkentda "Mikrokreditbank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash aholi bandligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotda kichik biznes ulushini ko'paytirish va odamlar turmush darajasini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mikromoliyalash iqtisodiyotning ushbu sektorini barqaror rivojlantirishga yordam beradigan eng samarali mexanizmlardan biri ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishni rivojlantirishning yangi istiqbollarini ochib berdi.

"Mikrokreditbank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki boshqaruvi raisi Jamshid Sayfiddinovning aytishicha, 2011 yilda bank faoliyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratishga

ko'maklashishga qaratilgan. O'tgan yili 383,5 milliard so'm yoki bank aktivlarining 77,5 foizi kredit qo'yimalari ulushiga to'g'ri keldi. Jumladan, umumiy qo'yimalarda qisqa muddatli kreditlar ulushi 20,5 foiz, uzoq muddatli kreditlar ulushi 79,5 foizni tashkil qildi. Yig'ilishda 2011 yilda bank kreditlaridan foydalangan xo'jalik yurituvchi kichik biznes sub'ektlari soni 1,3 barobar ko'paygani qayd etildi. Xisobot davrida ularga 288,6 milliard so'm hajmidagi kreditlar ajratildi.¹⁸

“Kelajak uchun intellektual **investitsiyalar**” krediti “Mikrokreditbank” yangiliklaridan biri hisoblanadi.

2011-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 31 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat, 13 tasi aksiyadorlik tijorat, 10 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Respublika hududlarida banklarning 810 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda. 2010-yilda respublika bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari o'zgarishining dinamikasi, tizimning barqaror rivojlanib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion faolligi ortib bormoqda. 2010-yilda tijorat banklari tomonidan ustav kapitalini ko'paytirish uchun chiqarilgan qo'shimcha aksiyalar hajmi 570 mlrd. so'mni tashkil qildi va ularni investorlar o'rtasida joylashtirish ishlari olib borildi. Banklarning kredit portfelida 3 yildan ortiq muddatga berilgan investitsion kreditlarning ulushi 2000-yilning oxiridagi 35 foizdan 75,2 foizga yetdi. 2010-yilning o'zida banklar tomonidan investitsiya maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar hajmi 3 250 mlrd. so'mni tashkil etgani holda, 2009-yilga nisbatan 35 foizga oshdi.¹⁹

Iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, qayta tiklash, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda

raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va keyinchalik ushbu korxonalarni strategik investorlarga sotish borasida ham banklar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. 2011-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra tijorat banklari tomonidan jami 147 ta iqtisodiy nochor korxona banklar balanslariga qabul qilingan korxonalardan 140 tasida ishlab chiqarish faoliyati qayta tiklandi, ularning 64 tasi yangi investorlarga sotildi. Qolgan 7 ta korxonada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha texnologik liniyalarni tiklash, qurilish-ta'mirlash, yangi uskunalarni o'rnatish va modernizatsiyalash bilan bog'liq ishlar amalga oshirilmoqda. Banklar tomonidan ushbu korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash uchun 156 mlrd. so'm miqdorida investitsiya yo'naltirildi, 21 mingdan ko'proq ish o'ri tashkil qilindi.

Umuman olganda, tijorat banklari balanslariga olingan holda faoliyati tiklangan korxonalarda 2010-yil mobaynida 460 mlrd. so'mdan ortiq mahsulot (xizmat)lar ishlab chiqarildi va shundan 165 mln. AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi. Shuningdek, «Qishloq qurilish bank» tomonidan qishloq joylaridagi 159 ta aholi punktlarida tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida 6 800 ta yakka tartibdagi uy-joylar qurilishiga 256 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklari tomonidan 402 mlrd. so'mlik yoki 2009-yilga nisbatan 1,7 barobar ko'p imtiyozli kreditlar ajratildi.²⁰

Bunday holat iqtisodiyotdagi barqarorlik va mustahkam o'sish sur'atlarining kuzatilayotganligi bilan bevosita bog'liq bo'lmoqda. Ammo umumiy investitsiyalarning o'sish tendensiyasiga nisbatan moliyalashtirishning istiqbolli manbalaridan biri bo'lgan tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha hissasi nisbatan past darajada qolmoqda.

Ma'lumki, Har bir korxona xo'jalik faoliyatini yuritganda soliq to'laydi. Bu soliqni kechiktirib, investitsion soliq krediti shaklida ishlatish mumkin. Bu kreditning muddati 1yilda 5 yilgacha. Foiz stavkasi esa 50% dan kam va 75% dan bo'lmasligi kerak. Bunday kredit jahon amaliyotida tez-tez uchrab turadi.

- 43 -1321/3/2014_____

²⁰ Manba: //Birja Ekspert. 2011 № 43-53 bet.

Tijorat banklarining investitsion faoliyati ularning moliyaviy salohiyatiga, ya'ni kapitalining umumiy hajmiga ham bevosita bog'liqdir. Tijorat banklari umumiy hajmiga ham bevosita bog'liqdir. Tijorat banklari umumiy kapitallarining salmog'ini ortib borishi mamlakat miqyosida ularning investitsion faoliyatini moliyalashtirishda ahamiyatining ortib borishiga loib keladi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning yana bir manbai lizing hisoblanib, u 1950-yillaridan boshlab AQShda va 1960-yillar Yevropada paydo bo'lgan. Moliyalashtirishning bu turi bizning O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida bormoqda. Lizing yangi texnika va texnologiyalarga bo'lgan talabning ortishi va bu talabning qondirishda korxonalar mablag'larining yetmasligi tufayli paydo bo'lgan. Hozirgi kunda lizing keng tarqalmoqda.

Lizing – bu ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga oluvchiga mashina va texnologiyalarni 3 yildan 20yilgacha egalik hiquqini saqlagan holda foydalanishga berishidir. Lizingning ikki turi mavjud: moliyaviy lizing va operativ lizing.

Moliyaviy lizingda ko'rsatilgan muddat davomida texnologiyaning to'liq amortizatsiyasi va ijaraga beruvchining foydasi to'lanishi kerak. Muddati tugagandan so'ng ijaraga oluvchi obyektni qaytarib berish, ya'ni shartnoma imzolashi yoki qoldiq qiymatiga sotib olish mumkin.

Operativ lizingning muddati amortizatsion davrdan qisqaroq muddati tugagandan so'ng obyektni egasiga qaytarilishi yoki yana ijaraga berilishi mumkin.

Lizing shartnomasining an'anaviy qatnashchilari uchta tomondan iborat: Bular: *lizing beruvchi*, *lizing oluvchi*, va *lizing mulkini sotuvchi*.

Lizingga texnologiya olish uchun korxona avval o'ziga kerakli texnologiyani qidiradi. Kerakli texnologiyani topgandan so'ng korxona lizing kompaniyasiga murojaat qiladi. Lizing kompaniyasi korxona bilan shartnoma imzolaydi va texnologiyani sotib oladi. Keyin bu texnologiyani korxonaga oxirida sotib olish huquqi bilan ijaraga beradi. Lizing shartnomasi tuzilganda lizing oluvchi korxonaga bank kafolati berilgan bo'lishi yoki, garovga biror narsa qo'yilishi kerak. Shartnomada bu o'ziga xos ssuda uchun nechchi foiz to'lashi, to'lov muddati va tartibi kabi majburiyat va huquqlari kelishib olinadi.

Ijara muddati tugagandan so'ng lizing oluvchi asosiy fondlarni kompaniyasiga qaytarilishi, qaytadan shartnoma imzolashi yoki qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi mumkin.

Forfeyting 1960-yillarda paydo bo'lgan investitsiyalarning moliyalashtirish usulidir. Forfeyting bu tijorat kreditining bank kreditiga aylantirilishidir. Forfeyting shartnomasida uchta tomon qatnashadi. Bular: *sotib oluvchi*, *sotuvchi* va *bank*. Investor o'ziga kerakli biror tovarni izlaydi. Topgandan so'ng sotuvchi bilan forfeyting usulida to'lovni amalga oshirishni kelishadi. Lekin buning o'zi yetarli bo'lmaydi. Shartnoma amalga oshishi uchun bankning ham roziligi kerak. Uchta tomon ham shartnomadan manfaatdor bo'ladi. Barcha huquq va majburiyatlar shartnomada aks etadi. Shartnoma imzolangandan so'ng investor sotuvchiga tegishli miqdorda foizli veksellar yozib beradi. Sotuvchi esa o'z navbatida veksellarni tijorat bankiga beradi.

Qimmatli qog'ozlar – bu qonunda belgilangan tartibda chiqarilgan va nominal qiymatga ega bo'lgan pulli hujjatlardir. Qimmatli qog'ozlar dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni nazorat tutadi. Qimmatli qog'ozlar tarkibiga davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar, aksiyalar, veksellar, cheklar, depozit sertifikatlar va boshqa hujjatlar kiradi.

Hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar emissiya qilish moliyalashtirishning keng tarqalgan turi bo'lib hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarning keng tarqalgan turi aksionerlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan aksiyalar hisoblanadi. Aksiya aksionerning korxonaga qo'ygan hissasini ko'satuvchi hujjat bo'lib, dividend shaklida daromad keltiradi. Aksiyalar oddiy va imtiyozli bo'ladi. Oddiy aksiyalarda aksioner aksionerlik jamiyatini boshqarishda qatnashish huquqini oladi, lekin dividend korxonaning moliyaviy natijasiga imtiyozli aksiyada yuqorida qayd etilgan huquq bo'lmaydi, lekin dividend korxona O'z bo'yniga olishi kerak. Chunki ishlab chiqarish har doim ham gullab yashnayvermaydi. Investitsiyalarni moliyalashtirishda aksiyalarni emissiya qilish juda qulay. Chunki agar korxona yaxshi faoliyat ko'rsata, uning aksiyalarini ham narxi oshadi. Narx esa talabga bog'liq.

Qimmatli qog'ozlarning yana bir keng tarqalgan turi – obligatsiyalardir. Obligatsiya majburiyat degan ma'noni bildirib, uning egasi foiz sifatida foyda oladi. Obligatsiya egasi korxona boshqaruvida ovozga ega bo'lmaydi. Biroq belgilangan foizda daromadga ega bo'ladi. Chet elda investitsiyalar loyihalarini moliyalashtirishning muhim manbalardan biri obligatsiyalarni muomalaga chiqarish hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga ko'p davlatlarda chet el investorlariga moliyaviy va soliq imtiyozlari beriladi.

Shuningdek investitsion loyihalarni moliyalashtirishning yana bir manbayi bu o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirishdir. Bu eng ishonchli moliyalashtirish manbasi bo'lib, ya'ni, bunda moliyalashtirish manbasini qidirish, bankrotga uchrash kabi ortiqcha tashvishlar kamayadi. O'z-o'zini moliyalashtirish korxonaning yaxshi moliyaviy ahvolidan dalolat beradi. Har bir korxonaning asosiy o'z mablag'lari manbasi bo'lib, bu sof foyda va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

Foydani ishlab chiqarishni rivojlantirishga, uylar, dam olish uylari qurishga, dividendlar to'lashga, beg'araz yordam sifatida ishlatish mumkin. Foydani to'g'ri ishlatish uchun korxonaning hozirgi va kelajakdagi texnik ahvolini hamda xodimlarning ijtimoiy ahvolini bilish kerak. Agar korxona xodimlari oylik bilan boshqa korxonalar xodimlariga qaraganda yaxshiroq ta'minlangan bo'lsa, foydani birinchi navbatda ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirish kerak.

Amortizatsiya ajratmalari – bu asosiy vositalarning belgilangan muddatda o'z qiymatini ishlab chiqarishga o'tkazib borishdir. Asosiy vositalarga bino, inshootlar, texnologiya asbob-uskunalar, kompyuterlar, avtomobillar ishlab chiqarish hamda xo'jalik inventarlari va boshqalar kiradi. Har bir korxona bu asosiy vositalarga daromadnamortizatsiya ajratmalarini ajratib boradi. Rivojlangan mamlakatlarda korxonalarning investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojining 70-80 foizini amortizatsiya ajratmalari orqali qondiradi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda tezlashtirilgan amortizatsiyaga o'tishgan. Chunki bozorda raqobat kuchli. Bu esa texnologiyani yangilab turishga undaydi. Yig'ilgan amortizatsiya fondi esa texnika-texnologiyani yangilashga sarflanadi. Rivojlangan davlatlarda korxonalar bu yo'dan bormasa raqobatga

bardosh bera olmaydi. Ammo amortizatsiya ajratmasini ham oshirib yubormaslik kerak. Chunki tan narxi oshib ketib qoladi.

Korxona amortizatsiya ajratmalarini real investitsiyalarga, ya'ni quyidagilarga sarflashi kerak:

- Yangi texnologiya sotib olishga;
- Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishga;
- Mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, ya'ni buni zamonaviylashtirish va yangilashga;
- Rekonstruksiyalash va ishlab chiqarishni kengaytirishga;
- Yangi qurilishga.

II BOB.

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDAGI USTUVOR TARMOQLARDA INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH, TASHQI VA ICHKI INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

2.1. O'zbekiston tarmoqlariga investitsion faoliyatni oshirishning amaldagi tahlili.

Ma'lumki, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish va investitsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, doimiy tarzda takomillashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida , mamlakat ichki investitsiya salohiyatining yuksalishini va xorijiy investitsiyalar oqimining yildan-yilga ortib borishini, shunga mos ravishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, shu jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmining ham o'sib borishini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010-yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: "...investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar berish ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni davom ettirish lozim. ...Hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yana bir muhim ustuvor yo'nalish – chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga ulkan e'tibor qaratishdan iborat"²¹

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarni uzluksiz amalga oshirishni talab qiladi. Shu bois investitsiyalari, xususan xorijiy investitsiyalarni ustuvor investitsion loyihalarga jalb qilishga alohida e'tibor berildi.

- 48 -1321/3/2014_____

²¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

Investitsiya faoliyatining erkinligi va rivojlanishini ta'minlash maqsadida uning huquqiy asosini mustahkamlash uchun "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlarning huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarning jalb qilishni rag'batlantirish borasidagi qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2007 yil 4 yanvarda PQ-554-sonli "Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.²²

Mazkur huquqiy hujjatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish, ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish va mamlakatda investitsion faollikni oshirishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSh dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.²³ Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi.


Barcha moliyaviy manbalar hisobidan texnik va texnologik qayta jihozlash uchun yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi 3 milliard 800 million dollardan oshgani yoki 2010 yildagi barcha kapital qo'yilmalarining 37,5 foizni tashkil etgani muhim ahamiyatga egadir.

- 49 -1321/3/2014_____

²² O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi (24.12.1998), "Chet el investitsiyalar to'g'risida"gi (30.04.1998), "Chet ellik investorlarni huquqlarini himoya qilishni kafolatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi (30.04.1998) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (11.04.2005), "Chet el investitsiyalar bilan loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari (09.02.2001).

²³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

**O'zbekiston Respublikasi 2005-2011 yillarda investitsiyalar sur'atlari
(oldingi yilga nisbatan foizda)²⁴**



2009-2014 yillarda amalga oshirish kozda tutilgan investitsiya loyihalari dasturi qiymati 42518 mln, AQSh dollarini tashkil etadi. Ularning 21536 mln, dollari neft va gaz tarmog'iga, 4517 mln. dollari energetikaga, 1876 mln dollari tog'-kon va metallurgiya sanoatiga, 1176 mln. dollari mashinasozlikka, 3078 mln. dollari kimyo sanoatiga, 5787 mln. dollari transport infratuzolmasiga, 983 mln. dollari qurilish mollari ishlab chiqarishga, 596 mln. dollari "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasiga, 2101 mln. dollari boshqa tarmoqlarga yo'naltirildi.²⁵

Oxirgi yillarda amalga oshirilishi tugallangan yirik investitsion loyihalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Yangi rusumdagi 480dan ortiq "MAN" avtomobillari hamda 7797 dona "Spark M300" yengil avtomobillar ishlab chiqarildi. (investitsiya hajmi – 31,3 mln dollar va 3 mln yevro);

- 50 -1321/3/2014—

²⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.

²⁵ Manba: Jamiyat va boshqaruv ilmiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-tarixiy jurnal, 2011 №2 48/51bet.

- Yiliga 30,0 mlrd kub.m. gazni transit qilish quvvatiga ega bo'lgan “O'zbekiston-Xitoy” gaz quviri ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 3168,9 mln dollar);

- Ko'kdumaloq konida yiliga 6 mlrd. kub.m. yo'ldosh gazlari utilizatsiya qilish stansiyasi qurildi (investitsiya hajmi – 373,0 mln. dollar);

- Xauzak konida yiliga 3 mlrd. metr kub gazni birlamchi tayyorlov moslamasi ishga tushirildi (LUKOYL bilan hamkorlikda) (investitsiya hajmi – 302,8 mln. dollar);

- “Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on” yo'nalishidagi yangi temir yo'llar (investitsiya hajmi – 34,4 mlrd. so'm);

- “Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus” temiryo'l liniyasining 6ta yangi raz'ezdi ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 6,8 mlrd. so'm);

- “To'qimachi-Angren” yo'nalishida yangi temir yo'llar (investitsiya hajmi – 85,4 mln. dollar).

Investitsiyalar dasturi doirasida 2010 yilda 200 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Ushbu dastur doirasida yiliga 50 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan “M-300” rusumidagi yengil avtomobil ishlab chiqarishni o'zlashtirish”, 200 ming tonna kaliy o'g'itlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan “Dehqonobod kaliy o'g'itlar zavodi qurilishi”, “Xomjiza konida polimetall rudalariga ishlov berish” kabi yirik loyihalar, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “Navoiyazot” kompaniyasining bir qator yangi obyektlarini barpo etish ishlari va boshqa loyihalar nihoyasiga yetkazildi.

**2005-2011 yillarda investitsiya sohasidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
dinamikasi²⁶**

Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Amaldagi baholarda, jami, mlrd. so'm	3165,2	4041,0	5479,7	8587,1	12531,9	15409,1	20721,8
Joriy yilga nisbatan % xisobida	107,0	109,1	122,9	128,3	124,8	109,2	112,6
YaIMda investitsiya miqdori, %	20,8	19,5	19,4	22,7	26,1	24,9	26,8
Markazlashgan investitsiyalar amaldagi baholarda, mlrd. so'm	755,8	915,8	1099,7	1717,0	2517,9	2855,3	4696,5
Kapital qo'yilmalarida markazlashgan investitsiyalar miqdori, %	23,9	23,1	20,1	20,0	20,1	18,5	22,7
Markazlashmagan investitsiyalar amaldagi baholarda, mlrd.	2409,4	3109,0	4380,0	6870,1	10014,1	12553,8	16025,4

so'm							
Kapital qo'yilmalarida markazlashmagan investitsiyalar miqdori, %	76,1	76,9	79,9	80,0	79,9	81,5	77,3

Prognoz ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasining 2011 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- Tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish;
- Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- Texnik va texnologiyalarni asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish;
- Teknik va texnologik qayta jihozlash;
- Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash;
- Chet el investitsiyalarni keng jalb qilish;
- Xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish;
- Infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini kompleks va jadal ravishda rivojlantirish;
- Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni jihozlash;
- "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik"ni salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish.

Shu maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirish to'g'risida"gi Qaroriga asosan 2011-2015 yillarda amalga oshirish ko'zda tutilgan investitsiya loyihalari dasturlari tasdiqlangan.

2010 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy miqdori milliy valyutada 15409,1 mlrd. So'mni tashkil etgan edi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajminig 11027,6 mlrd. so'mni yoki 71,6 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, 4381,5 mlrd. so'mi yoki 28,4 foizi esa noishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirildi.

13-rasm

Iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi, 2010 yil²⁷

	mlrd.so'm	Umumiy nisbatan %da hajmga
Jami	15409,1	100,0
Ishlab chiqarish tarmoqlari	11027,6	71,6
Sanoat	4399,3	28,6
Shu jumladan:		
Yoqilg'i-energetika sanoati	1728,4	11,2
Metallurgiya	782,0	5,1
Kimyo va neft-kimyo sanoati	199,4	1,3
Mashinasozlik	473,5	3,1
Yengil sanoat	427,0	2,8
Oziq-ovqat sanoati	262,5	1,7
Qurilish materiallari sanoati	332,5	2,1
Qishloq xo'jaligi	473,7	3,1
Qurilish	313,5	2,0
Transport va aloqa	4502,4	29,2
Savdo	714,8	4,7
Geologiya va yer osti boyliklarini izlash	419,6	2,7
Boshqalar	204,3	1,3
Noishlab chiqarish tarmoqlari	4381,5	28,4
Uy-joy qurilish	2260,2	14,7
Kommunal xo'jalik	298,7	1,9

Sog'liqni saqlash	322,3	2,1
Ta'lim	408,2	2,6
Madaniyat va san'at	105,8	0,7
Boshqalar	986,3	6,4

O'zbekiston davlati mustaqilligiga erishgan dastlabki yillaridan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishiva barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rin tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborining kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimiz yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim.

14-rasm

**2010 yilda mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalarning taqsimlanishi²⁸**

	Jami investitsiyalar, mlrd. so'm	Shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (yakunga nisbatan foiz hisobida)				
		Byudjet mablag' -lari²⁹	Korxonalar va aholi mablag'lari	Chet el investitsiyalari va kreditlari	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Byudjetdan tashqari fondlar mablag' -lari³⁰
Jami	15409,1	7,8	47,3	28,8	9,1	7,0

- 55 -1321/3/2014_____

²⁸ R.X. Karalbayeva//Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.T.: 2011

²⁹ Manba: Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'larini qo'shgan holda.

³⁰ Manba: Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini qo'shgan holda.

Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha:						
Davlat	3604,1	32,7	34,0	12,4	1,7	19,2
Nodavlat	11805,0	0,2	51,4	33,8	11,3	3,3

Keyingi yillarda O'zbekistonda ham investitsion faoliyatning iqtisodiy masalalarini o'rganish bo'yicha jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va muayyan muvaffaqiyatlarga ham erishildi. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida investitsiyalarning mazmuni "iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar"³¹ sifatida ta'riflanadi.

Bizga ma'lumki, iqtisodiy o'sish investitsiya resurslarisiz o'sishi mumkin emas, bu resurslar o'z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag'lardir. Bu moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so'ng real investitsiyalar aylanadi va iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi.

Jahon tajribasining ko'rsatilishicha, keng iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalarni, xususan, turli sohalardagi investitsiya loyihalarini amaliyotga tadbiiq etish bilan ko'proq ta'minlanishi mumkin. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab, iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar va siljishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin. Umuman olganda, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning mevasi, natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Ya'ni u cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan bog'liq va aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisidir.

- 56 -1321/3/2014_____

³¹ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 1998. 24 dekabr //Soliqlar va bojxona xabarlari. 4-son,1999.3-b.

O'zbekistonda ishlab chiqarishga kapital qabul qilish tizimi yildan-yilga takomillashib bormoqda. Hozirda xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabatda zamonaviy xalqaro xo'jalik aloqalari qoidalariga asoslangan holda qonun va qarorlar ishlab chiqarilmoqda, shuningdek, xorijiy investitsiyalarning infratuzilmalari yaratilmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda maxsus investitsiya loyihalarini baholaydigan, investitsiyalar qo'yilishiga talab bo'lgan davlatlarni investitsiya muhitini o'rganadigan va investorlar uchun aniq xulosalar beradigan muassasalar mavjud.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati katta bo'lib,, birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy etib,eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi; ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlab, ishsizlik muammosini hal etishga ko'maklashadi; to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi; beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va hokazo.

Iqtisodiyotda ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatdan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni , ko'proq iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

2011 yilda iqtisodiyotga jalb etiladigan barcha investitsiyalarning 36,4 foizdan ortig'i sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturini amalga oshirishga yo'naltiriladi. Investitsiyalarning 46 foizini esa zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari tashkil etadi. Joriy yilda 35 tadan ortiq yirik ishlab chiqarish korxonasi qurishni yakunlash va foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida 2011 yilda iqtisodiyotning real sektoriga 3 mlrd. dollardan ortiq investitsiya kiritish mo'ljallangan edi. Bu mablag'ning 2 mlrd. 2000 mln. dollardan ortig'i yoki 73 foizdan ziyodi to'g'ridan-tog'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi.

Infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini kompleks va jadal ravishda rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun 2015 yilgacha bo'lgan davrda mo'ljallangan maxsus dasturga binoan 85ta investitsiya loyihasini joriy etish va bu ishlarga barcha manbalar hisobidan qariyb 7 mlrd. dollar ajratish rejalashtirilmoqda. 2011 yilda bu mablag'ning 1 mlrd. 200 mln. dollardan ortig'i o'zlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga muvofiq 2011 yilda iqtisodiyotga kiritiladigan investitsiyalarning 4,6 foizini byudjet, 0,5 foizini sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, 4,4 foizni byudjetdan tashqari jamg'armalar, 6,5 foizni hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalari 10,0 foizni tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari tashkil etadi.³²

Yurtimizda investitsiya salohiyati yildan-yilga barqarorlashib borayotgan bo'lsada, lekin hozircha respublika iqtisodiyotiga yirik hajmdagi investitsiyalar asta-sekinlik bilan kirib kelmoqda. Bunga O'zbekistonning dengiz savdo yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmasligi, telekommunikatsiya aloqalarining yetarlicha rivojlanmaganligi, qimmatli qog'ozlar bozorining sust rivojlanayotganligi sabab bo'lmoqda.

Mintaqalarda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ichki resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mamlakat miqyosida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Kapital mablag'lari qaytimi tez bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish, sanoat ishlab chiqarishda energiya va material sig'imining kamayishiga erishish;
- Sanoat obyektlari qurilishini moliyalashtirishda xususiy kapital qatnashishini rag'batlantirish, kichik korxonalar shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- Industrial korxonalar barpo etish jarayonini tezlashtirish, iqtisodiyotda tugallanmagan qurilish obyektlari sonini keskin kamaytirish;
- Sanoat korxonalari faoliyatini baholash, rentabellik darajasini hisoblash, iqtisodiy ko'rsatkichlarni iqtisodiy tahlil etish;
- Investitsion faoliyatga taaluqli axborot va ma'lumotlarni olishni yanada erkinlashtirish, milliy ishlab chiqarishni rivojlanishini monitoring qilish;
- Iqtisodiy subyektlarning erkin faoliyat yuritishiga imkon yaratish va boshqa omillardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

15-rasm

O'zbekiston Respublikasida investitiyalarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi (jamiga nisbatan % hisobida)³³

T/p	Manbalar	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.
	Jami investitsiyalar	100	100	100	100	100
1.	Markazlashgan investitsiyalar, shu jumladan	23,4	22,5	20,1	20,0	20,1
1.1	Byudjet mablag'lari	12,7	10,7	9,0	8,9	8,1
1.2	Byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari	4,7	6,9	6,1	7,6	7,6
1.3	Hukumat kafolati ostida jalb	6,0	5,0	5,0	3,5	4,3

- 59 -1321/3/2014—

³³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik byulletenlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.
Manba: //Birja,Ekspert – 2011 №5. 49-53 bet.

	qilingan kreditlar					
2.	Markazlashmagan investitsiyalar, shu jumladan	76,6	77,5	79,9	80,0	79,9
2.1	Korxona mablag'lari	48,7	48,3	47,6	43,6	36,3
2.2	Tijorat banklari mablag'lari	2,9	3,4	3,1	7,9	5,2
2.3	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	13,2	14,1	17,8	25,8	27,9
2.4	Aholi mablag'lari	11,8	11,7	11,3	10,8	10,6

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish ularni mablag'lar bilan ta'minlanishi borasida davlat tomonidan chora-tadbirlarning ko'rilishi ularni amalga oshirish uchun yetarli shart-sharoit yaratishga yordam bermoqda. Davlat tomonidan investitsiyalar loyihalarini amalga oshirish uchun berilgan imtiyozlar, iqtisodiy siyosat olib borishda soliqqa tortish bazalarining bosqichma-bosqich kamaytirib borilishi korxonalarning shaxsiy aylanma mablag'larini oshirishga hamda ular orqali investitsiyalsh jarayonlarini yanada jadallashtirishda katta rol o'ynaydi. Natijada, moliyalashtirish manbalari bo'yicha kapital qo'yilmalar umumiy tarkibida korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalarning ulushining o'sishi ta'minlandi.

Mintaqalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ichki resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Tijorat tuzilmalarini kafolatga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida kafolar-garov jamg'armalari tizimini shakllantirish lozim;
- Investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb qilish maqsadida moliya sanoat guruhlarini tashkil etish jarayonini faollashtirish;
- Aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarilishini kengaytirish (masalan, uy-joy sertifikatleri va uy-joy obligatsiyalari);

- Investitsion loyihalarni qo'shma (ulushi) davlat-tijorat moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish;

- Ishlab chiqarishni tuzilmaviy-tenologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarining bir qismini tez qoplaydigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish;

- Investitsion loyihalarni sifatini ko'tarish hamda shu bilan birga, ushbu loyihalar kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini (o'ziga xos birja) tashkil etish.

Respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida mintaqalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularni qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yaxshilashga oid bo'lib, qolganligi;

2. Sanoat tarmog'ida moddiy-texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi;

3. Respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbai sifatida kamayib borayotganligi;


4. O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerga ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi;

5. Aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish zarurligi;

6. Respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmish zarurligi va boshqalar.

Shu o'rinda aytish mumkinki, tarmoqlararo investitsiya salohiyatini oshirish va investitsiya loyihalarini samarali o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarning hal etilishiga muvaffaq bo'linadi.

Investitsiyalar hududiy tuzilmasidagi o'zgarishlar (%)³⁴




2.2. O'zbekiston mintaqalarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlar.

Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida mamlakatimizni modernizatsiya qilish, o'ta raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir korxonalar tashkil etish, respublikamizning eksport salohiyatini oshirish jarayoni O'zbekistonning **ichki** imkoniyatlari bilan birga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy **investitsiyalar** jalb qilish hisobiga amalga oshirilmoqda.

17-rasm

Sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati³⁵
(o'tgan yilga nisbatan % da)



“O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi, “O‘zkimyosanoat” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zfarm sanoat” davlat aksiyadorlik konserni va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rahbarlari oldiga faoliyat ko‘rsatayotgan quvvatlarni yangilash va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni ishga tushirish investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yildi. Tegishli vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari tomonidan ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy

investitsiyalarni, jalb etish yuzasidan faol chora-tadbirlar ko‘rilishining muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirishda xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun yo‘li bilan keng ko‘lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy **investitsiyalar** ishtirokida 4,2 mingga ko‘proq korxona tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko‘proq asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy **investitsiyalar** o‘zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko‘prog‘i ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollari qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g‘ovlar va to‘siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag‘batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida:

1. Respublika qonunchiligi tomonidan 1-ildan muvofiq xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun keng ko‘lamdagi

kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar tizimi yaratilgan.

2. Xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar.

3. Unga muvofiq qiymati 50 million AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012 yilning II choragidan boshlab: 2-ilovaga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida faoliyat yuritayotgan; Toshkent shahri va Toshkent viloyati istisno etilgan holda, respublikaning barcha mintaqalarida joylashtiriladigan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga tatbiq etilshi;.

5. Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender (tanlov) savdolarini o'tkazish bo'yicha Davlat komissiyasiga (R.S.Azimov) xorijiy investorlarning buyurtmanomalari bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining balansida bo'lgan past likvidli obyektlarni aniq investitsiya majburiyati ostida investor bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish yo'li bilan tanlov o'tkazmasdan "nol" xarid qiymati

bo'yicha sotish huquqi berilshi haqida To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Farmoni qabul qilindi.³⁶

To'qimachilik sanoati yuksalmoqda



O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi 2012-yilning birinchi choragida umumiy qiymati 18 million AQSh dollaridan ziyod oltita investitsiya loyihasini nihoyasiga yetkazdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yalpi ichki mahsulotning samarali o'sishiga bir necha muhim omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida iste'mol talabi kengayishi munosabati bilan investitsiya faolligini oshirish muhim o'rin tutadi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar barqaror iqtisodiy yuksalish kafolati, uni izchil rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu bois iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish yo'lini tanlagan mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay investitsion muhit, keng ko'lamli huquqiy kafolatlar va imtiyozlar yaratilgan, xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha yaxlit tizim ishlab chiqilgan.



Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal hamda muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan “2011-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi va 2011-yil 27-dekabrda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi Investitsiya dasturiga oid qarorlarida mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish vazifalari belgilangan.

“O‘zbekengilsanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasi ushbu jarayonning faol ishtirokchilaridan biridir. Negaki, mamlakatimiz yengil sanoati nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham yetakchi o‘rin egallaydi. 2011-yil yakunlari bo‘yicha sanoatda ushbu tarmoq ulushi 26 foiz, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishda 44 foizdan ziyod bo‘ldi.

“O‘zbekengilsanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga doir amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati e‘tiborga molikdir. Chunki tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga barqaror oshib bormoqda.



Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida yangi ishlab chiqarishlar hamda yangi texnologik liniyalarni tashkil etish hisobidan mavjudlarini kengaytirishga qaratilgan oltita investitsiya loyihasining amalga oshirilgani bunga yorqin misol bo‘la oladi. Mazkur ob’ektlarda bugungi kunda 7 ming tonna ip, 2,7 ming tonna trikotaj

polotno, 0,6 million tikuvchilik-trikotaj buyumlari, shuningdek, 7,5 million kvadrat metr ip gazlama ishlab chiqarilayotir.³⁷

“Osborn tekstil” korxonasida yigirilgan ip ishlab chiqarishni kengaytirish birinchi chorakda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalaridan biridir. Qiymati yetti million dollarga teng ushbu loyihaning amalga oshirilishi yiliga 2,1 ming tonna ip ishlab chiqarish va uch million dollarlik mahsulotni eksport qilish imkonini beradi. Toshkent viloyati tog‘ etagidagi xushmanzara Iskandar qishlog‘ida joylashgan “Osborn tekstil” yangi va jadal rivojlanayotgan korxonadir. 2008-yilda foydalanishga topshirilgan va dastlab xom ip yigirish sexidan iborat bo‘lgan ushbu korxona yakunlangan ishlab chiqarish sikliga ega yaxlit kompleksga aylandi. Korxonaning ishlab chiqarish maydonlarida jahondagi yetakchi to‘qimachilik mashinasozligi korxonalarida ishlab chiqarilgan yangi, yuqori texnologik uskunalar o‘rnatilgan. Bu yerda paxta tolasi qayta ishlanib, “Mirelle” savdo belgisi ostida tayyor paxmoq buyumlar tayyorlanmoqda.

“Osborn tekstil” korxonasida ishlab chiqarish jarayoni paxta tolasini qayta ishlaydigan yigiruv fabrikasidan boshlanadi. Bu yerda kardanli, taroqli va halqasimon yigiruv tizimi asosida xom ip ishlab chiqarilmoqda. Ishlab chiqarish hajmi kuniga 16 tonnani tashkil etayotir. Maxsus uskunalar pishiq ip tayyorlash imkonini bermoqda. Korxona mahsulotlari nafaqat ichki bozorlarda, balki mamlakatimiz tashqarisida ham xaridorgir. Tayyor mahsulotning yarim fabrikati yangi rusumdagi dastgohlar bilan jihozlangan to‘quvchilik fabrikasida tayyorlanadi. Bu yerda bir oyda sidirg‘asiga bo‘yalgan va olachipor 96 tonna paxmoq mato ishlab chiqariladi. Xom ip va tolalarni texnologik bo‘yash jarayoni bo‘yash fabrikasida amalga oshiriladi. Buning uchun tayyor buyumlar ko‘p marta yuvilganda ham ulardan uzoq muddat foydalanishni ta‘minlaydigan kuchli bo‘yoqlar qo‘llanilmoqda. Bo‘yash fabrikasining laboratoriyasi har qanday murakkab rangni ishlab chiqish, uning tarkibida kimyoviy moddalar bor-yo‘qligini

- 68 -1321/3/2014—

³⁷ O‘ZA, 09.05.2012

tahlil qilish, kerakli natijaga erishish uchun retseptura tanlash hamda bo'yashning barcha jarayonlarini belgilab olish imkonini beradi. Matolar va trikotaj polotnolarni bo'yash bo'yicha bo'yash-pardozlash fabrikasi "Osborn tekstil" korxonasi ishlab chiqarish jarayonining yangi tashkil etilgan bo'g'inlaridan biridir. Bu yerda bir kunda yetti ming tonna bo'yalgan gazlama va polotno ishlab chiqarish quvvatiga ega dastgohlar o'rnatilgan. Paxmoq matolar va trikotaj polotnolarga oxirgi pardoz berish, yuqori sifatli mahsulot olish maqsadida ularni bug'lash, quritish va dazmollash uchun qo'shimcha texnologiya o'rnatilgan.

"Osborn tekstil" tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan tikuvchilik fabrikasida bo'yash va pardozlash jarayonlaridan keyingi ishlar bajarilib, mantiqiy nihoyasiga yetkaziladi. Fabrika yiliga uch millionta tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu yerda tayyorlanayotgan barcha mahsulotlar laboratoriya sharoitida sifat nazoratidan o'tkaziladi, ko'zdan kechirilib, saralanadi hamda o'raladi.

"O'zekspormarkaz"da "UzBuild – 2011" va "MebelExpo Uzbekistan" xalqaro ko'rgazmalari ochildi. Ko'rgazmalar O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, **investitsiyalar** va savdo vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, "O'zkommunxizmat" agentligi, Toshkent shahar hokimligi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ko'magida "ITE Uzbekistan" xalqaro ko'rgazma kompaniyasi hamda uning xorijiy sheriklari tomonidan tashkil etilgan.

Qurilish sanoati iqtisodiyotimizning eng istiqbolli va jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uni mustahkamlash O'zbekiston sanoatini rivojlantirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori ushbu tarmoqni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. 2011 yilda 357 massivda kamida 7,4 ming turar-joy, shuningdek, ijtimoiy va kommunal xo'jaligi obyektlarini qurish ko'zda tutilgan bo'lib,

ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish yangi texnologiyalar va innovatsiya yechimlari, ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etishni talab qilmoqda. Aynan shu bois “UzBuild – 2011” xalqaro ko‘rgazmasida mamlakatimiz va xorijdagi qurilish materiallari bozorining yetakchi vakillari qatnashmoqda.³⁸

“O‘zqurilishmateriallari” aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisi E.Akramovning aytishicha, “UzBuild – 2011” ko‘rgazmasi mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda, qurilish bozorining investitsion jozibadorligini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash imkonini bermoqda.

Bu yil “UzBuild – 2011” ko‘rgazmasida O‘zbekiston, Avstriya, Belarus, Daniya, Italiya, Polsha, Rossiya, Ukraina, Fransiya, Shvetsiya, Yaponiya kabi 16 mamlakatdan 130 kompaniya ishtirok etmoqda. Ishtirokchilar umumiy sonining 23 foizini mamlakatimiz qurilish sanoati vakillari tashkil qiladi. Joriy yilda ko‘rgazmada 30 kompaniya, shuningdek, Germaniya, Belgiya qirolligi, Quvayt davlatidan uchta milliy guruh birinchi marta qatnashmoqda.

Bu yilgi ko‘rgazmaning avvalgilaridan farqi ekspozitsiyaning isitish va shamollatish, qurilish materiallari va uskunalari, elektr asbob-uskunalari, interyer va dizayn, kulolchilik va pardoz toshi, landshaft va ko‘kalamzorlashtirish, rom va vitrajlar kabi aniq bo‘limlarga ajratilganidadir. Ko‘rgazmada qurilish va pardozlash materiallari, metall konstruksiyalar, ularni ishlab chiqarish uskunalari, asbob-uskunalar, moslamalar, abraziv materiallar, sendvich-panellar, landshaft qurilishi, gidroizolatsiya materiallari, temir-beton konstruksiyalar, tovush o‘tkazmaydigan materiallar, tom va tom yopish materiallari, qoplama va o‘tga chidamli materiallar, qurilish kimyosi, liftlar, ko‘tarish-transport texnikasi va boshqalar namoyish etildi. paytning o‘zida “MebelExpo Uzbekistan” xalqaro ko‘rgazmasi ham o‘tkazilmoqda.

“MebelExpo Uzbekistan” xalqaro ko‘rgazmasining ham yangi ishtirokchilar hisobiga yil sayin kengaymoqda. Joriy yilda unda Avstriya, Buyuk Britaniya,

Germaniya, Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Litva, Polsha, Belarus, Rossiya, Sloveniya, O'zbekiston, Janubiy Koreya kabi dunyoning 13 mamlakatidan qariyb 40 kompaniya qatnashmoqda.

Bugungi kunda bozorda kichik va xususiy biznes korxonalari ulushi tobora ortib borayotir va ularning faoliyati mamlakatimiz rahbariyati tomonidan munosib rag'batlantirilmoqda. Yurtimiz kompaniyalari mebel sanoatining dunyoga mashhur brendlaridan namuna olmoqda, ishlab chiqarish va ichki bozorni ta'minlashda ularning ijobiy tajribasini qo'llamoqda. Shu sababli o'zimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar mamlakatimiz mebel bozorining katta qismini tashkil etadi va xaridorgirligi bilan ajralib turadi.

"Fayz" xolding kompaniyasi boshqaruvi raisi M.Azimovanning ta'kidlashicha, O'zbekiston mebel bozorining ko'lami katta va bu sog'lom raqobatni yuzaga keltirmoqda. Modernizatsiyalash va mahalliyashtirish loyihalari, davlatimiz tomonidan tarmoqni qo'llab-quvvatlash uchun berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar, ichki va tashqi investitsiyalar, shuningdek, mahsulot sifati va turining muntazam ortib borayotgani hamda mebel ishlab chiqaruvchilarning omilkorligi bozorda o'z o'rnini saqlab qolish imkonini bermoqda. Uskuna va butlovchi qismlar, mebel ishlab chiqarish uchun materiallar, furnitura, tayyor mebel ehtiyot-qismlari kabi bir qancha sektorlarga bo'lingan ko'rgazma ekspozitsiyasi ham shundan dalolat beradi. Ekspozitsiyaning katta qismini o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar stendlari tashkil etadi. Buday ko'rgazmalarning natijasida esa yangi ishlab chiqarish quvvatlari va qo'shma korxonalar tashkil etiladi, mamlakatimizning eksport salohiyati hamda xalqaro savdo munosabatlari yanada mustahkamlanadi.

Yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek, Toshkent viloyatining ishlab

chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Toshkent viloyati hokimligining Toshkent viloyatida “Angren” maxsus industrial zonasini (keyingi o‘rinlarda – “Angren” MIZ deb yuritiladi) 1-ilovaga muvofiq hududlar chegaralari doirasida barpo etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinishi;

2. Ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun investitsiyalar, eng avvalo to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlarni shakllantirish;

maxsus industrial zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash, mineral-xomashyo resurslarini yanada chuqurroq qayta ishlash bo‘yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish;

maxsus industrial zona va umuman respublika korxonalari o‘rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o‘rnatish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda samarali foydalanish, “Angren” logistika markazi salohiyatini, yuklarni avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish hamda ulardan keng ko‘lamda foydalanishni ta‘minlash.

3. sobiq sanoat zonalarining foydalanilmayotgan hududlarida korxonalar qurish uchun yer maydonlarini o‘z vaqtida ajratish, muhandislik-kommunikatsiya

infratuzilmasi tarmoqlariga ulanish uchun barcha zarur ruxsatnomalarni “bir darcha” tamoyili asosida berish.

4 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi “O‘zbekenergo” DAK, “O‘ztransgaz” AK, “O‘zavtoyo‘l” AK, “O‘zbekiston temir yo‘llari” DAK, “O‘zkommunxizmat” agentligi, Toshkent viloyati hokimligi bilan birgalikda uch oy muddatda “Angren” maxsus industrial zonasi hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish dasturini ishlab chiqilishi bo‘yicha farmon qabul qilindi.³⁹

- 73 -1321/3/2014_____

³⁹ “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
//O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov//Toshkent shahri, 2012 yil 13 aprel

2.3. Xalqaro kompaniyalarni qabul qiluvchi mamlakatga xorijiy investorlarni jalb qilishning milliy rejimi.

Tashqi bozorda faoliyat yuritish nuqtai-nazaridan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) alohida milliy bozorlarga xizmat ko'rsatuvchi ko'p millatli tarmoqlar, bunda har bir tarmoq (ozuq-ovqat sanoati, chakana savdo, sug'urta) qabul qiluvchi mamlakatga qarab o'z xususiyatiga ega bo'ladi. 2) butun jahon bozorini hisobga olgan iste'molchi-davlatlarda talab xususiyatlarini minimal aks ettiruvchi global tarmoqlar (fuqaro aviatsiyasi, televidenie, yarim o'tkazuvchilar ishlab chiqarish)ning mavjudligi.

Iqtisodiyotning global tarmoqlariga ixtisoslashgan xorijiy filiallarni boshqarish uchun xalqaro kompaniyalar dunyo ko'lamida raqobatbardoshlik darajasini tutib turish maqsadida global strategiyani qo'llaydi. Bunday kompaniyalar xorijiy filiallarning butunjahon tarmog'iga ega, sayyoramizning turli qit'alarida resurslarga ega, eng past ishlab chiqarish xarajatlariga ega davlatlarda korxonalar tashkil qiladilar va masshtab samarasini keng qo'llaydilar. Ular o'z tadqiqot markazlarini bosh kompaniya joylashgan davlatlarda emas, balki ko'pincha yaxshi sotish bozorlari mavjud bo'lgan mamlakatlarda joylashtiradilar.

Mahalliy va xorijiy raqobatchilar amal qilayotgan qabul qiluvchi mamlakatda shakllangan bozorda raqobatbardoshlik afzalliklariga ega bo'lish ancha qiyin, jiddiy tayyorgarliksiz esa – deyarli mumkin emas. Xalqaro kompaniyaning qabul qiluvchi mamlakatlarda eng samarali faoliyat sohasini aniqlash uchun TMK izlanuvchi-iqtisodchilari va marketologlari yangi xorijiy bozorga chiqish haqidagi qaror loyihasini tayyorlash jarayonida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va jahon bozoriga yetkazib berishda xalqaro kompaniya imkoniyatlarini tanqidiy baholaydilar va chet elda tadbirkorlik faoliyati sharoitlarini quyidagi bir necha aspektlarda ko'rib chiqadilar:

1. Raqobatchi korxonalar firma tuzilishi va strategiyasi aspekti. Bu aspektda birinchi navbatda tanlab olingan faoliyat sohasida milliy korxonalar va faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy firmalarga nisbatan xalqaro kompaniyaning raqobatbardoshlik darajasini baholash zarur. Bundan tashqari qabul qiluvchi

mamlakatda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil qilish uslubi TMK xorijiy filiali ega bo'lgan sharoitlarga javob berishini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Bunda mahalliy raqobatchi-firmalar qanday strategiya tanlashini, raqobatli kurashda ulardan o'zish imkoniyati darajasini, xalqaro kompaniyaning mo'ljallanayotgan faoliyat sohasi qabul qiluvchi mamlakat millati psixologiyasiga javob berishini aniqlab olish zarur.

2. Xizmatlarni ishlab chiqarish va ko'rsatish sharoitlari aspekti. Bu yo'nalishdagi tahlil predmeti bo'lib quyidagi omillar xizmat qiladi: iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida qabul qiluvchi mamlakatning nisbiy afzalliklari yaqqolroq namoyon bo'ladi, xalqaro kompaniyani qiziqtiruvchi iqtisodiyot sohalarida ITTKI uchun asos mavjudligi va nihoyat, qabul qiluvchi mamlakat xalq xo'jaligidagi zaif tomonlarning (kapital yetishmasligi, ilmiy-texnik sohada orqada qolish va b.) xorijiy sarmoyadorlar faoliyati bilan to'ldirilishi mumkinligi.

3. Sotish sharoitlari. Ular milliy iste'molchilar tomonidan talablarning murakkablik darajasi va xususiyatlari, shuningdek qabul qiluvchi mamlakatda sotish kanallarining jahon bozorida qabul qilingan kanallardan farqlanishi bilan aniqlanadi. Ichki talabning rivojlanish tendentsiyalari TMK xorijiy filiali mahsulot assortimentini shakllantirish yo'nalishlarini belgilaydi.

4. Qardosh tarmoqlar va yetkazib beruvchilar. Bu holatda xalqaro kompaniyani qabul qiluvchi mamlakatda mahsulotini yirik iste'molchilarining mavjudligi haqidagi axborot qiziqtiradi. Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun u yerda loyihalashtirilayotgan korxonani xomashyo va materiallar bilan ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. TMK xorijiy filiali faoliyat sohasini tanlashda keyingi muhim omil bo'lib mahalliy firmalar – potensial yetkazib beruvchilarning texnik darajasi (sifatli butlovchi detallarni yetkazib berish imkoniyatiga egaligi) hisoblanadi.

Bosh kompaniya xorijiy tadbirkorlik uchun mamlakat tanlashga eng katta e'tibor beradi. Biror mamlakatda xorijiy filialni tashkil qilish haqida qaror qabul qilishdan avval potensial qabul qiluvchi mamlakatlarning sharoitlarini to'rtta

asosiy aspektda: bozor, iqtisodiy, mahalliy sharoitlarning xususiyatlari va raqobatbardoshlik aspektlarida o'rganib chiqiladi.

Bozor aspektida qulay omillarga bozor hajmi, ishlab chiqarishga mo'ljallanayotgan mahsulotlarga yoki mahalliy bozorda taqdim qilinishga mo'ljallanayotgan xizmatlarga talab o'sishining yuqori sur'atlari, yirik iste'molchilarning mavjudligi, xorijiy sarmoyadorni qiziqtirayotgan tovarlar va xizmatlar hayotiy stiklining uzunligi, uning reklamasini mahalliy iste'molchilar tomonidan yaxshi qabul qilinishi, sotish tarmog'ini baynalmilallashtirish imkoniyati kabi omillar kiradi.

Bozor aspektida xalqaro menejerning qabul qiluvchi mamlakatda ishlab chiqarish va sotishga mo'ljallanayotgan tovarlar va xizmatlar iste'molchilarini turmush tarzi, intilishlari, istaklari xususiyatlariga qarab guruhlariga taqsimlanishini bilishi foydali. Xaridorlik talabining mavsumiy tebranishlari va sarmoyalar yo'nalishlaridagi tendensiyalar haqidagi ma'lumotlar ham katta ahamiyatga ega. Xalqaro menejer izlanishlarining predmeti bo'lib qabul qiluvchi mamlakatda sotish kanallarining tuzilishi, ulgurji va chakana savdo xususiyatlari hisoblanadi.

Iqtisodiy jihatdan u yoki bu mamlakatni qabul qiluvchi sifatida tanlash haqidagi qaror qabul qilishga xalqaro ko'lamda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish natijasida ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini qisqartirish, manbalarning keng doirasidan ilmiy-texnik va tijorat axborotlarini olish imkoniyati, ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga ITTKI sarflarini qisqartirish kabi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirkorlik faoliyatining mahalliy sharoitlariga qabul qiluvchi mamlakatning an'analari: bojxona tarifini, import va eksport kvotalarini, tovarlar va xizmatlarning importi bilan bog'liq mahalliy me'yorlar va standartlar, tadbirlar, tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini patentlash sharoitlarini o'z ichiga olgan qonunchilik kiradi.

Xalqaro menejer uchun qabul qiluvchi mamlakatda, ayniqsa, uning hududida ishlab chiqarishga va sotishga mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga nisbatan tadbirkorlik faoliyatining o'rnatilgan tartibi haqidagi axborot muhim.

Qabul qiluvchi mamlakat savdo palatasi va tijorat assotsiatsiyalarining xalqaro menejerni qiziqtiruvchi tovarlar va xizmatlar bozorini erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlari haqidagi axborotni olish foydali. Bosh kompaniya mamlakatining qabul qiluvchi mamlakatdagi elchixonasi yoki savdo vakolatxonasining mahsulot realizatsiyasiga ko'maklashish maqsadida amalga oshirayotgan xatti-harakatlari to'g'risida xabardor bo'lishi muhim o'rin tutadi. Xalqaro kompaniya uchun quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

- valyutani muvofiqlashtirish tizimi;
- mulkchilik huquqlari kafolatlari (xorijiy kompaniyalar mulki ekspropriatsiya qilinganda kompensatsiya to'lovining miqdori va uni to'lash shakli haqidagi masalani o'z ichiga olgan holda);
- qabul qiluvchi mamlakat firmalari bilan kelishmovchiliklarni xalqaro arbitrajda hal qilish imkoniyati;
- bevosita xorijiy investitsiyalar uchun ochiq tadbirkorlik faoliyati kategoriyalari va ularning qaysilari uchun alohida imtiyozlar berilishi haqidagi aniq qonunchilik. Qabul qiluvchi mamlakatning investitsion iqlimi ko'p darajada moliyaviy tizim ahvolini aniqlaydi. Xalqaro kompaniya xorijiy aktivlarining qismati qabul qiluvchi mamlakatda hukumat barqarorsizligi, soliq tizimining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, inflyatsiyani ushlab turuvchi yoki yo'qotuvchi qat'iy iqtisodiy siyosat yuritilmasligi bilan bog'liq inflyatsiya jarayonlari evaziga yo'qotilishi mumkin. Xalqaro kompaniya xorijiy filiali inflyatsiya sharoitlarida ish xaqining baholar o'sishiga nisbatan yuqoriroq o'sishi va soliq tizimining yomon tashkil qilinishi sababidan ham zarar ko'radi. Shuning uchun odatda xorijiy firmani tashkil qilish haqida qaror qabul qilishdan oldin bosh kompaniya kelajakda qabul qiluvchi mamlakatda inflyatsiya darajasini hisobga oladi.

Ishlab chiqarish va sotish xarajatlari nuqtai-nazaridan xorijiy investor uchun transport va aloqa vositalarining mavjudligi va foydalanish qiymati qabul qiluvchi mamlakat sharoitlariga qo'llanuvchi texnologiyalarni moslashtirish imkoniyati birinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda bosh kompaniya rahbariyati potensial raqiblar – qabul qiluvchi mamlakatda milliy firmalarning mahalliy xaridorlar

ehtiyojlarini va mahalliy bozorning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq bilishi kabi ustunliklariga egaligini e'tiborga oladi. Bundan tashqari milliy firmalarni mahalliy hukumat qo'llab-quvvatlaydi, va nihoyat, iste'molchilarning vatanparvarlik sifatleri ular tomonida bo'ladi.

U yoki bu mamlakatda tadbirkorlik faoliyati haqidagi qaror qabul qilishdan oldin bosh kompaniyaning mahalliy sharoitlar aspektidagi harakatlari ketma-ketligi odatda quyidagi tadbirlar zanjiridan iborat bo'ladi:

- qabul qiluvchi mamlakat bozorining kattaligi va chegaralarini baholash;
- ishlab chiqarishga mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarning sifatini raqobatchilar taqdim qilayotgan shunday tovarlar va xizmatlarning sifat ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
- o'rganilayotgan bozorda va qabul qiluvchi mamlakat mintaqasida sotishni tashkil qilish imkoniyatlarini o'rganish;
- qabul qiluvchi davlat xaridorlari ehtiyojlari, qonunlari va an'alarining xususiyatlarini o'rganish;
- shu bozorda xorijiy raqobatchilarning faoliyat tajribasi bilan tanishish;
- qabul qiluvchi mamlakatda ishlab chiqarishni tashkil qilishning bu mamlakatga eksportga nisbatan ustunliklarini baholash.

Bosh kompaniya ishlash sharoitlari ma'lum bo'lgan mamlakatlarga, masalan ushbu mamlakatda bosh kompaniyaning sotish bo'yicha filiali amal qilayotgan bo'lsa ko'proq e'tibor beradi.

Qabul qiluvchi mamlakatda tadbirkorlik faoliyati sharoitlari haqidagi axborotning asosiy manbalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Qabul qiluvchi mamlakatning savdoga ko'maklashish bo'yicha davlat tashkilotlari (ko'pincha bu korxonalarning faoliyati eksportni rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan)ning roli;

2. Bosh kompaniya joylashgan mamlakatda qabul qiluvchi mamlakatning import qiluvchi firmalarining vakolatxonalari bo'lib, ular talabga ega tovarlar va xizmatlar haqida ma'lumotlar berishi mumkin (qabul qiluvchi mamlakatda bozorni o'zlashtirgunga qadar ular bilan hech qanday shartnomalar imzolamaslik afzal);

3. Bosh kompaniya davlatida qabul qiluvchi mamlakat elchixonasi yoki savdo vakolatxonasi, banklar bo'limlarining axborotlari;

4. Qabul qiluvchi mamlakatda bosh kompaniya davlati elchixonasining tijorat bo'limi yoki savdo vakolatxonasining mavjudligi. Ular odatda eksportni rivojlantirishdan manfaatdor, ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazasiga ega va shuning uchun qabul qiluvchi mamlakat bozori haqidagi axborotni tez berishi va hatto potensial xaridorlar va import qiluvchilar bilan ham tanishtirishi mumkin;

5. Bosh kompaniya joylashgan davlat va qabul qiluvchi mamlakat savdo palatalarining axborotlari.

Qabul qiluvchi mamlakatda raqobatbardoshlik omilini o'rganishda xalqaro kompaniya rahbariyati kerakli raqobatbardoshlik darajasiga qabul qiluvchi mamlakat bozorida o'xshashi bo'lmagan antiqa tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) hisobiga erishish mumkinligini tushunadi. Raqobatli kurashda, shuningdek, raqobatchilar sifatidan ustun bo'lgan an'anaviy mahsulotlar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan ham omadga erishish mumkin. Nihoyat, raqobat darajasi antiqa yangi texnologiyalar qo'llanishiga asoslangan kam ishlab chiqarish xarajatlari evaziga past baholar bilan ushlab turilishi mumkin.

Qabul qiluvchi mamlakatda ishlab chiqarish va sotishga mo'ljallanayotgan tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini baholashga o'xshash tovarlar va xizmatlar bozoridagi asosiy raqobatchilar, bu bozor sektorlarining asosiy raqobatchilar o'rtasida taqsimlanishi, raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlari, ularning strategiyasi xususiyatlari, shuningdek qabul qiluvchi mamlakatda xalqaro kompaniya xorijiy filiali ixtisoslashgan tovarlar va xizmatlarga talab o'sishining kutilayotgan sur'atlari haqidagi ma'lumotlar yordam beradi.

Yangi tovar yoki xizmatlar qabul qiluvchi mamlakatning bozorida o'z o'rnini topishi yoki ular yangi xususiyatlari bilan ajralib turishi kerakki, iste'molchilar ularni ko'rmaguncha ularning zaruriyati haqida bilmasligi mumkin. Bu degani xalqaro menejerning qabul qiluvchi mamlakatda yangi yoki takomillashtirilgan tamoyilga asoslangan talabni yaratishiga to'g'ri keladi. Xususan u o'z tovarlarining ajoyib iste'mol xususiyatlarini reklama qilishi mumkin.

Tovarlar yoki xizmatlarning sotilishini kengaytirish uchun xalqaro menejer qabul qiluvchi mamlakatning ommaviy axborot vositalarida bu tovarlar yoki xizmatlarni uning kompaniyasida ixtiro qilinishi va yaratilishining ko'p yillik tarixini bayon qilishi, ularning ishlab chiqarishida qo'llanilayotgan yetakchi texnologiyalarni ta'kidlashi, o'z tovarlari yoki xizmatlarining ko'pgina boshqa tovarlardan foydali farqlarini asoslashi mumkin.

Bunda xalqaro menejer boshqarayotgan xorijiy filialning imkoniyatlari va egiluvchanligini baholashi lozim. U asosiy iste'molchilarni buyurtmasini uning firmasi qanday muddatlarda bajara olishini va qabul qiluvchi mamlakat sharoitlarida mahsulot ishlab chiqarishning qanday hajmi real bo'lishini yaxshi bilishi kerak. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga va uning shartnomada ko'rsatilgan texnik-iqtisodiy xarakteristikalariga muvofiqligiga birinchi darajali e'tibor berilishi lozim. Qabul qiluvchi mamlakatlarda iste'molchilar odatda bozordagi xorijdan keltirilgan yangi tovarlar yoki xizmatlarga shubha bilan qaraydilar va bu tovarlarda ularning iste'mol xususiyatlari uchun juda kichik va ahamiyatsiz bo'lgan kamchilik va nomuvofiqliklarni ham kechirmaydilar. Iste'molchilarni, shuningdek tovarlarni shartnomalarda ko'rsatilgan muddatlarda va kelishilgan miqdorlarda olishlari qiziqtiradi.

Xalqaro kompaniyalar uchun qabul qiluvchi mamlakat jozibadorligining asosiy omillariga bu davlat hukumatining chet el investitsiyalariga nisbatan aniq shakllantirilgan munosabatini kiritish kerak.

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, qabul qiluvchi mamlakat hukumatining xorijiy investitsiyalarga nisbatan siyosati chet ellik investorlar uchun kerakli makroiqtisodiy iqlim yaratilib, ular uchun muayyan foyda olish imkoniyati va foydaning bir qismini repatriatsiya qilish huquqi berilgan taqdirdagina jozibali bo'ladi.

Qabul qiluvchi mamlakatga xorijiy investorlarni jalb qilishda milliy rejim prinsipi – ochiq huquqiy tizim ayniqsa kuchli stimul hisoblanadi. Uning doirasida xorijiy investorlar qabul qiluvchi mamlakat fuqarolarining muayyan tadbirkorlik

faoliyatiga taaluqli qoida va nizomlarga rioya qilsa, qonunchilik tomonidan ta'qiqlanmagan shunday tadbirkorlik faoliyati ruxsat etiladi.

Qabul qiluvchi mamlakatning xorijiy investorlar uchun jozibadorligining asosiy omillaridan biri bo'lib, qarzni to'lash, foydani chet elga o'tkazish va kapitalni repatriatsiya qilish uchun ularning erkin almashinadigan valyutaga ega bo'lish hisoblanadi. Bunda soliq imtiyozlari shubhasiz xorijiy investorlarni jalb qiladi, biroq xorijiy investitsiyalar ortidan quvishda soliq imtiyozlariga beriluvchanlik ayrim rivojlanayotgan davlatlarning achchiq tajribasi ko'rsatishicha, qabul qiluvchi davlat iqtisodiyotida nomutanosibliklarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun qabul qiluvchi mamlakatlarning hukumatlariga BMT ekspertlari "Milliy xo'jalikda nomutanosibliklarga olib keluvchi ortiqcha imtiyozlardan ko'ra, yuqori bo'lmagan soliqlar afzal" prinsipi bo'yicha kelishilgan soliq mexanizmlarini kiritishni tavsiya qiladilar.

Oxirgi vaqtda rivojlangan davlatlarda investorlarni TMK bilan qo'shma ITTKI o'tkazishga ilmiy potensialga ega davlatlar jalb qiladi. Bunday hollarda qabul qiluvchi davlat hukumatlari zaruriy resurslar va texnologiyalarga ega milliy tadqiqot markazlarining TMK xorijiy filiallari bilan qo'shma ilmiy-texnik hamkorligi uchun qulay sharoitlar yaratib beruvchi siyosat o'tkazadilar.

Qator potensial qabul qiluvchi mamlakatlar imkoniyatlarini batafsil tahlil qilish natijasida xalqaro kompaniyalarning iqtisodchilari bu mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlarni har bir mamlakatning afzalliklarini ballarda baholab jadvallarga kiritadilar. Eng ko'p ballga ega bo'lgan davlat tanlanadi.

Chet elda tadbirkorlik faoliyati tajribasining ko'rsatishicha, qabul qiluvchi mamlakatda bir-ikki yil ichida ishga oid aloqalarni olib bormagan sherikni tanlash kerak emas. Xalqaro kompaniyalar odatda bu masalada shoshilmaydilar, chunki bunda yo'l qo'yilgan xatolar qimmatga tushadi va qiyin bartaraf qilinadi. Bunda chet elda ishga oid sherikni tanlashda ob'ektiv standartlarni qo'llash tavsiya qilinadi.

Mahalliy ishlab chiqarish kompaniyasi xalqaro korporatsiya mahsuloti bilan mahalliy kompaniya assortimentini to'ldirganda yoki mahalliy ishlab chiqarish

kompaniyasi o'z faoliyat doirasini boyitmoqchi bo'lganida TMK bilan hamkorlik qilishga qiziqadi. Bu holda TMK xorijiy filial menejeri mahalliy kompaniyaning sotish tizimiga, uning TMK xorijiy filiali mahsulotini sotishdan manfaatdorligiga e'tiborini qaratishi kerak. Shu bilan birga TMK xorijiy filiali menejeri e'tiboridan mahalliy firma mahsuloti va TMK filiali mahsuloti o'rtasida ularning birgalikdagi faoliyatining ma'lum bosqichida raqobat vujudga kelish imkoniyati chetda qolmasligi kerak.

Mahalliy kompaniyaning TMK xorijiy filiali bilan hamkorlikka qiziqishini saqlab qolish uchun filialning texnologik jihatdan doim ustunlikka ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga shunday hodisalar ham ma'lumki, bunda mahalliy sherik TMK xorijiy filialiga qabul qiluvchi mamlakat sharoitlariga moslashtirilgan o'z texnologiyasi va uskunalarini berib, shu bilan mahalliy bozorda TMK xorijiy filial obro'sining oshishiga va uning texnik darajasini ko'tarilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, mahalliy ishlab chiqarish kompaniyasi TMK xorijiy filiali mahsuloti iste'molchilariga sotuvdan keyingi malakali xizmat ko'rsatish, shuningdek qabul qiluvchi mamlakatda xaridorlarning ehtiyojlari xususiyatlaridan xabardor tajribali sotuvchilar bilan yordam berishi mumkin.

Yirik savdo firmalari qabul qiluvchi mamlakatda TMK xorijiy filial sherigi sifatida ma'lum afzalliklarga ega. Ular ko'proq keng turlanuvchi tovarlar va xizmatlar assortimenti – xomashyo va materiallar, neft mahsulotlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari, shuningdek mashina va uskunalarni sotish bilan shug'ullanadilar. Qabul qiluvchi mamlakatda mahalliy yirik savdo firmalari bilan hamkorlik qaltisligiga eng avvalo ularning TMK xorijiy filial mahsulotiga qiziqish darajasi va xorijiy korporatsiya mahsulotiga talab susaygan holda, ularning hamkorlik qilishdan kutilmagan voz kechish imkoniyati kiradi. Bunday kutilmagan havfning oldini olish uchun sherik sifatida tor ixtisoslashgan, iste'molchilar bilan vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri bog'langan savdo firmasini tanlash kerak.

Eng ko'p ixtisoslashgan savdo kompaniyalari, shuningdek tashqi bozorda ham ancha faol harakat qiladi. Ular turli tovarlarning mayda partiyalari yoki cheklangan nomenklaturadagi mahsulotlarning yirik partiyalarini sotish bilan

shug'ullanishni afzal ko'radilar. Bu firmalar odatda bozorning konkret sektoriga ixtisoslashadi va shu sababli maxsus tovarlar sotish uchun kerakli bilimlar va keng aloqalarga ega bo'ladi. Bunday kompaniyalar bilan qo'shma faoliyat qaltisliklariga hamkorlikning ma'lum bosqichida ularning TMK xorijiy filiali mahsuloti bilan raqobatlashayotgan tovarni afzal ko'rish imkoniyati, TMK xorijiy filiali mahsulotini sotish uchun ularda malakali xodimlarning yetishmasligi va hamkorlikka intilishlari ularning real imkoniyatlariga mos kelmasligi kiradi.

Bir necha kompaniyalarni tanishtiruvchi mahalliy agentlar bilan birgalikda ishlash TMK xorijiy filiali mahsulotining shu agent xizmatidan foydalanuvchi boshqa firmalar tovarlari va xizmatlari bilan shu kompaniyalar doirasida yashirin raqobat qilishi havfini o'z ichiga oladi. Biron-bir agentni xorijiy sherik sifatida tanlashdan oldin uning sof vijdonligi, umumiy bilimi, harakatchanligi va muayyan tovarlar va xizmatlar assortimenti bilan ishlash tajribasining mavjudligiga ishonch hosil qilish lozim.


Potensial sheriklarni to'g'ri baholash uchun, ularning qaysilari ko'proq mahalliy ma'muriyat va hukumat doiralarining ko'magi va hurmatiga egaligi, shuningdek: Ular xalqaro kompaniyaning qabul qiluvchi mamlakatdagi strategiyasini tushuna oladimi? Qabul qiluvchi mamlakat bozoriga xalqaro kompaniya chiqarayotgan tovarlar va xizmatlar assortimentiga rozi bo'la oladimi? Xalqaro kompaniya xorijiy filialiga mahalliy bozorda ishonchli ishga doir aloqalarni ta'minlay oladimi? O'z sotish tizimini taklif qila oladimi? degan masalalarni aniqlab olish zarur.

Qabul qiluvchi mamlakatlik sheriklar odatda xalqaro kompaniya bilan qo'shma faoliyatini ehtiyotkorlik bilan, ya'ni mahalliy bozorga birinchi ikki yil davomida pastroq baholarda kam turdagi mahsulotni chiqarish bilan boshlashni ma'qul topadi. Bu davr mobaynida shunday muammolar vujudga kelishi mumkinki, ularning ta'siri natijasida xalqaro kompaniya bilan hamkorlik amalga oshmasligi mumkin.


Shu bilan birga xalqaro kompaniya mahalliy bozorni yaxshi biladigan sheriklarning takliflariga e'tibor bilan qarashi kerak. Xususan, mahalliy sherik

qabul qiluvchi mamlakat bozoriga chiqarilayotgan tovarlar assortimentini o'zgartirishni yoki qadoqlashni bezash va o'ramda tovarlar birligi miqdorini mahalliy iste'molchilar didiga mos holda o'zgartirishni asossiz bo'lmagan tarzda taklif qilishi mumkin.

**2011 yil yanvar dekabrda chet el investitsiyalari ishtirokidagi
korxonalar eksporti hajmi (mln.AQSh dollar)⁴⁰**



**2011 yil yanvar dekabrda chet el investitsiyalari ishtirokidagi
korxonalar importi hajmi (mln.AQSh dollar)⁴¹**



III bob

O'ZBEKISTONNING TARMOQLARIDA IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISH TENDENSIYALARI.

3.1. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

“Chet el investitsiyalari” to'grisidagi Ozbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Qonunining 3-moddasida “chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi”⁴².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 22 martdagi farmoniga muvofiq quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, shu'ba va qoshma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari qatoriga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi miqdori 150 ming AQSh dollaridan kam bo'lmagan korxonalar, korxona ishtirokchilaridan biri albatta chet el yuridik shaxsi hisoblangan, korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60% dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.⁴³

Chet el investitsiyalari – chet mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishdagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil etishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatbaxo qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

- 87 -1321/3/2014_____

⁴² O'zbekiston yangi qonunlari. 19-son.-T.:Adolat, 1998 532-bet.

⁴³ Manba: Iqtisodiyot Vazirligi ma'lumotlari. 2005.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lishda, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui. Investitsiya muhiti eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalarzaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy konyuktura holati, ichki bozor sig'imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va hokazo.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni katta. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi mustaqil omillardan biri bo'lgan.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiya asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish

quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga katta e'tibor berilmoqda. Asosiysi xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan. Bunda qonuniy kafolatlarni yaratish alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi "chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi.

"Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonun yigirma ikkita moddadan iborat bo'lib, uning o'ninchi moddasida chet ellik investorlarning huquqlari alohida belgilab qo'yilgan.

Chet ellik investorlarning xalqaro huquq prinsiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- Investitsiyalarni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;
- Investitsiya faoliyatini amalgam oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;
- O'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;
- O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat na'munalarini chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;
- Investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliksiz repatratsiya qilish);
- O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlar tariqasida pul mablag'lari jalb etish;

- O'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;
- Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;
- O'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;
- Davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida yetkazilgan zararlarni undirish.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.⁴⁴

“Boj tarifi to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasi va “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulkka boj solinmas edi. Endilikda faqatgina chet ellik investorlar, balki ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ham o'z ishlab chiqarish Ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulk bo'yicha boj undirilishidan ozod qilindilar.

2005 yil 11 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga asosan endilikda 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i mulk solig'i, ekologiya solig'i, mikro firma va kichik korxonalar uchun

belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilindi.

Endilikdan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

1. 300 ming AQSh dollaridan 3mln. AQSh dollarigacha 3 yil muddatga;
2. 3 mln. ortiq AQSh dollaridan 10 mln. AQSh dollarigacha 5 yil muddatga;
3. 10 mln AQSh dollaridan ortiq bo'lganda 7 yil muddatga.⁴⁵

Ushbu Farmonning 1-bandida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari asosan korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish asosida qo'llanilishi belgilab qo'yilgan. Investitsiyadan foydalanishda har ikkala tomonning iqtisodiy manfaatini teng hisobga olgan holda amalga oshirish kerak. Investitsiyani boshqarish tartibi va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish zarur.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- Davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan tashkilotlar;
- Chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat yuritib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;
- Chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'magan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili ta'kidlab o'tganidek, o'tgan yili faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyaga asoslangan yangi ishlab

chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosatini yuritishga alohida e'tibor qaratildi.

2010-yilda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 12-martdagi PQ-1072-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2009-2014 - yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi» hamda mahalliyashtirish dasturlari bilan tasdiqlangan investitsion loyihalarni amalga oshirish izchil davom ettirildi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yanada rivojlantirish, xususan, qishloq joylarda zamonaviy uy-joylarni barpo etish bilan bog'liq investitsion loyihalar amalga oshirildi.⁴⁶

Investitsiya muhitini yanada yaxshilash shartlaridan biri bank tizimini takomillashtirish, moliya bozorida raqobatni vujudga keltirish, naqd puldagi va naqd bo'lmagan puldagi operatsiyalarni amalga oshirishni yaxshilash, xorijiy investorlarni axborot bilan ta'minlashni yaxshilashdan iborat.

Hozirda, Respublikada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha huquqiy baza yaratildi, investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma barpo qilindi va bu jarayon takomillashib bormoqda. Bu borada "Valyutani tartibga solish" to'g'risidagi qonun qabul qilindi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining vazifalari qayta ko'rib chiqildi va uning milliy valyutani konvertatsiyasi hamda import kontraktlarini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan vazifalari bekor qilindi.

2010-yilda o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 2009-yilga nisbatan 9,2 foizga ortdi va 15 409 mlrd. so'mni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbati qariyb 25 foizni tashkil qildi. Ushbu investitsiyalarning deyarli 72 foizi ishlab chiqarish korxonlarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning 47,3 foizini xo'jalik subyektlari va aholining o'z mablag'lari, 28,8 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar tashkil

- 92 -1321/3/2014_____

⁴⁶ Manba: "[Bozor, pul va kredit](#)" ilmiy-amaliy oylik jurnali, 1/2011 soni. 14-25 - betlar

etib, bunda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar miqdori 2,4 mlrd. AQSh dollaridan oshdi.

Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoyalash maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari, Respublika tomonidan Adliya vazirligi ularning manaatlarini himoya qiluvchi davlat organlari vakolati berildi.

Investitsiya shartnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Investitsiyalar obyekti va hajmi;
- Investitsiya shartnomasining amal qilish muddati va shartlari;
- Investorning, shu jumladan investitsiyalash hajmi, ishlab chiqarishning muayyan hajmini ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sifatining kafolatlangan darajasi, o'zi ishlab chiqargan tovarlar eksporti va ko'rsatadigan xizmatlar hajmi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida jalb etiladigan kreditlarning qaytarilishini ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlariga, mehnat qonunchiligiga va texnika xavfsizligiga rioya qilish, ishlab chiqarish faoliyatining boshqa sohalari bo'yicha huquq va majburiyatlari;
- O'zbekiston Respublikasi hukumatining, shu jumladan qonun hujjatlarda belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari berish bo'yicha huquq va majburiyatlari;
- Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, pudrat ishlariga shartnomalar tuzish muddatlari, moliyalashtirish manbalari, loyihani amalgam oshirish jadvallari, investitsiya loyihasining amalgam oshirish texnik nazorat qilish tartibi to'g'risidagi axborotlar;
- Chet ellik investor tomonidan uning majburiyatlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taqdin etish tartibi va muddatlari;
- Tomonlarning investitsiya shartnomasi shartlariga rioya qilmaganligi uchun javobgarligi;
- O'zgartirishlar kiritish tartibi;
- Investitsiya shartnomasini amal qilish ni to'xtatish tartibi;

- Investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi va ko'rib chiqish joyi.

Chet ellik investor investitsiya shartnomasini tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aliqalar, investitsiyalar vasavdo vazirligiga quyidagilarni taqdim etadi.:

- Investitsiya shartnomasining loyihasi;
- Qonun hujjatlarda belgilangan hollarda vakolatli organlarda ekspertizadan o'tkazilgan texnik-iqtisodiy asoslash (texnik-iqtisodiy hisoblash) asosida bajarilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar;
- Investitsiya shartnomasi loyihasining huquqiy ekspertizasi yuzasidan Adliya vazirligining xulosasi;
- Chet ellik investorlarga va (yoki) tashkil etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaga qonun hujjatlarda belgilanganlarda qo'shimcha ravishda soliq solish bo'yicha imtiyozlar va preferensiyalar berish yuzasidan – Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi xulosalari.

O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda birinchi navbatda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo'ildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;
- Respublika iqtisodiyotiga bevosita capital mablag'ini keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;
- Respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;

- Mablag'ni Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Shuningdek Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1. Investitsiya loyihalarini malali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishga erishish;

2. Qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan:

- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- Mineral xomashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

O'tgan davr mobaynida milliy iqtisodiyotni shakllantirish va uni tubdan isloh qilish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining eng muhim omili va asosini tashkil etganini alohida ta'kidlash zarur. Bu borada bizning oldimizda respublika va aholi ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg'i-energetika resurslari, iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ishonchli tarzda qondirishdek dolzarb hayotiy vazifa turar edi.

Yurtimizda yoqilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu o'rinda avvalo shuni aytish lozimki, O'zbekiston tabiiy gaz, neft va gaz kondensati bo'yicha aniqlangan ulkan sanoat zaxiralariga ega bo'lganiga qaramasdan, ilgari iqtisodiyot tarmoqlari va

aholi ehtiyojini qondirish uchun yiliga 6-7 million tonna neft va neft mahsulotlarini chetdan keltirish va buning uchun katta miqdordagi valuta resurslarini sarflashga majbur bo'lar edi.

Bu jiddiy muammoni hal etish maqsadida qisqa fursat ichida o'zimizdagi uglevodorod xomashyosini qazib olish va qayta ishlash bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Yangi neft-gaz konlarini aniqlash, neft va tabiiy gazni qazib olish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar topildi, jumladan, xorij sarmoyasi jalb etildi. Buxoroda neftni qayta ishlaydigan yangi zamonaviy zavod barpo etildi, Farg'ona va Oltiariqdagi neftni qayta ishlash zavodlari modernizatsiya va rekonstruksiya qilindi, ularning barqaror va ishonchli faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratildi.

Shuningdek, o'zining ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatiga ko'ra o'xshashi bo'lmagan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi kabi noyob inshoot barpo etildi. Ushbu korxonada tayyorlanayotgan suyultirilgan gaz, turli markadagi polietilen va boshqa mahsulotlarga nafaqat mamlakatimiz, balki chet ellarda ham talab katta ekanini qayd etish lozim.

Mustaqillik yillarida ana shunday yirik korxonalarning qurilishi va rekonstruksiya qilinishi natijasida hozirgi vaqtda yurtimizda neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1990 yilga nisbatan 3 barobar ortdi. Bugungi kunda O'zbekiston bu borada mamlakatning va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga, eksport hajmini ham ko'paytirishga erishdi.

Asaka va Samarqand shaharlarida avtomobil zavodlarini barpo etganimiz tufayli mustaqillik yillarida avtomobillar soni keskin oshdi va har 100 oilaning avtomobil bilan ta'minlanish darajasi 6 barobar o'sdi. O'z-o'zidan ayonki, respublikamizda benzin va yoqilg'i-moylash mahsulotlariga bo'lgan talab ham shunga mos ravishda oshib bormoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bizda tajribaning yo'qligi, bu navbatdagi to'siqlardan biri edi, desak xato bo'lmaydi. Vaziyatdan chiqish uchun ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi o'rganib chiqildi.

Zamonaviy bozor munosabatlari shakllanishida bu koʻzdan qochirilgan emas. Davlatimiz tomonidan Islohotlar va **investitsiyalar** boʻyicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash, soha va tarmoqlarning oʻzaro aloqasini taʼminlovchi tuzilmalar tashkil etildi. Tarmoqlararo erkin axborot almashinuvini taʼminlaydigan yagona maʼlumotlar tizimi yaratildi. Shuningdek, hududlarni muvozanatli va uygʻun rivojlantirishga qaratilgan investitsiya dasturlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, bozor infratuzilmasining qoloqligi, subʼektlar oʻrtasida maʼlumot almashinuvining sustligi, aloqaning texnik qurollanish darajasi pastligi, munosabatlarning tarqoqligi oqibatida majburiy munosabatlar yuzaga kelishi kabi xatar ham oʻz vaqtida bartaraf etildi. Zamonaviy kommunikatsiya va aloqa tarmoqlari barpo etildi. Mamlakatdagi barcha biznes va xoʻjalik subʼektlarini atroflicha qoʻllab-quvvatlash maqsadida respublika va uning hududlarida Biznes-Fondlar, keyinchalik Oʻzbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tashkil etildi. Unga xos va mos bozor infratuzilmalari, jumladan, aksiyadorlik-tijorat banklari ochildi va ular xoʻjalik subʼektlari bilan faol hamkorlik olib bordi.

3.2. Iqtisodiyotda investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishini rivojlantirish chora-tadbirlari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotning har bir tarmog'ida barqarorlikni ta'minlash eng dolzarb mavzuga aylandi. Shu sababli har bir tadbirkor va mulk egasidan, qolaversa, korxona rahbaridan katta mas'uliyat talab etiladi. Bu borada I. Karimov ta'kidlaganlaridek, "...har bir alohida yo'nalish uchun mas'ul bo'lgan ijrochilar tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni tarmoq komplekslari va hududlar bo'yicha amalgam oshirilishini qat'iy va tizimli ravishda nazorat qilishni taqozo etadi".⁴⁷

O'zbekiston investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirishning tashqi manbalari bilan bir qatorda, ichki manbalardan ham oqilona foydalanishga harakat qiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalaridan foydalanish uchun, ushbu sohaning huquqiy va iqtisodiy asoslarini ta'minlash, uning ochilmagan va o'rganilmagan qirralarini o'rganish, amaliyotga tatbiq etish hamda takomillashtirib boorish lozim.

Keyingi paytlarda davlat byudjeti tomonidan bir qator yirik ishlab chiqarish majmualari moliyalashtirilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish sharoitida davlat milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni (ish, xizmatlarini) ishlab chiqaruvchi ob'ektlarni moliyalashtiradi. Hususiyashtirishning kengayishi hamda xususiy sektorning rivojlanib borishi bilan davlat byudjeti mablag'lari evaziga investitsiyalash kamayib boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga o'tib borayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham davlat byudjeti tomonidan tibbiyot, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat, maorif hamda boshqa ijtimoiy sohalar loyihalari moliyalashtirildi. Bu esa ijtimoiy sohaning rivojlanishida juda muhim o'rin egallaydi.

Bunga misol sifatida, keyingi paytlarda mamlakatimizda keng miqyosda qurilib foydalanishga topshirilayotgan sog'liqni saqlash muassasalari, akademik

litseylar hamda kasb-hunar kollejlarini va boshqalarni olishimiz mumkin. Bunday maqsadlar uchun davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar hamda boshqa manbalardan mablag' ajratiladi. Respublikamizdagi mavjud korxonalar rivojlanib, moliyaviy jihatdan barqarorlashib bormoqda. Bunda asosan korxonaning o'zini-o'zi moliyalashtirish mablag'lari quyidagilardan tashkil topishi ko'zda tutiladi:


- Korxonaning taqsimlanmagan foydasi;
- Amortizatsiya ajratmalari fondi;
- Aksiyalar chiqarish hisobiga shakllantirilgan mablag'lar;
- Maxsus fondlar.

Ushbu sanab o'tilgan mablag'lar manbaida korxonalar o'z ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda, yangi ishlab chiqarishni barpo qilishda, modernizatsiyalash yoki texnik-texnologik jihatdan yangilanishda, aylanma mablag'larni ko'paytirishda foydalanishlari mumkin. Hozirgi kunda ko'pgina korxonalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan subsidiyalar va boshqa yordam mablag'lari ajratilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan qo'llab-quvvatlash siyosati asosida korxonalarga, ayniqsa endigina ish boshlagan xorijiy investitsiyali yoki boshqa turdagi kichik va o'rta korxonalarga soliq imtiyozlarini berish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar mana shu imtiyozli davr mobaynida soliq to'lovlarini amalgam oshirmaydilar va shu summalarni o'z ishlab chiqarishini kengaytirish ga yo'naltiradilar. Bundan tashqari, korxonalar o'zlariga keraksiz bo'lgan asosiy vosita va boshqa mulklarni sotish yoki ijaraga berish orqali ham qo'shimcha mablag'larga ega bo'lishlari mumkin.

Investitsiya loyihalarini turli xil manbalar hisobiga moliyalashtirishda bank kreditlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Qisqa davr mobaynida bank tizimini isloh qilish bo'yicha o'nlab qonun va qarorlar, yo'riqnoma va tadbirlar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda respublikamizda bir qator tijorat banklari faoliyat yuritmoqda. mamlakatimizdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'z faoliyatlarini rivojlantirishlari uchun kreditlar ajratilmoqda.

Moliyalashtirish manbalari⁴⁸

Kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishning manbalar bo'yicha guruhlanishi.



Ushbu banklar o'z mablag'lari hisobidan hamma xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari orqali loyihalarni moliyalashtirishda faollik ko'rsatmoqdalar. Umuman olganda esa, loyihalarni moliyalashda bank kreditlarga tayanish bozor iqtisodiyoti sharoitida ham odatiy, ham majburiy holatdir. Keyingi paytlarda respublikamizda bank tizimini, pul-kredit tizimini rivojlantirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan bir qator amaliy choralar ko'rilmogda. Bularga, bank tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan hukumat qarorlari,

Prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha qarorlarni qabul qilinishining natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ortiqcha aralashishlar, keraksiz tekshirishlar, ular faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi salbiy kuchlarga barham berildi. Bundan tashqari, ular faoliyatini tijorat banklari tomonidan kreditlashda, ortiqcha hujjatlarni talab qilish va kreditlash muammolarini kechiktirish holatlariga ham chek qo'yildi. Bunda investitsiyalash imkonini vujudga kelishi o'z navbatida mamlakatimizda investitsiyadan samarali foydalanish, to'g'ri yo'naltirish va tarmoqlararo taqsimotini takomillashtirish masalasini yuzaga keltiradi. Keltirilgan munomoni hal qilish uchun zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanib, omiliy, regression, klassifikatsiyalash, diskriminatsion tahlillarni kompleks ravishda amalga oshorish maqsadga muvofiqdir. Albatta bu borada AQSh va Yevropa mamlakatlarida yetarlicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, investitsiyalarni noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida optimal taqsimlanishining Sharp, Markovits modellari mavjud bo'lib, ular asosida investitsiyalarni taqsimlanishining ko'p mezonli optemallashtirish modellari yaratilgan. Bu modellar asosan investitsiyalar ikki xil mezon, ya'ni investitsiyalardan olinadigan daromadlarni maksimallashtirish va tavakkalchilik darajasini minimallashtirishdan iborat. Ushbu modellar AQSh, Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida o'zining qo'llanilish samarasini topgan. Bundan tashqari, Rossiya va Ukraina davlatlarida Sharp-Markovits modellarining modifikatsiyalangan shakllaridan bo'lish xorijiy investitsiyalarni tarmoqlararo optimal taqsimlanish modellari hozirgi vaqtda foydalanib kelinmoqda. Ushbu modellar korxonalarning joriy holati asosida investitsiyalarni taqsimlash taklif etiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan modellarda korxonalarga taqsimlanadigan investitsiyalar chegaralari, modernizatsiyalash sharoitlari hisobga olinmagan. Lekin biz yaratayotgan ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellar tizimi yuqorida keltirilgan holatlar bilan birga respublikamiz milliy iqtisodiyotining

hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini, korxonalarni modernizatsiyalash va texnik-texnologik qayta jihozlash shartlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyadan samarali foydalanish mehnat unumdorligi, moddiy-texnika hamda mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishdan tashqari, investitsiya yo'nalishini va iqtisodit tarmoqlararo taqsimlanishini to'g'ri tashkil etish bilan ham bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotni rivojlantirish hamda unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozoriga raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning ahamiyati katta. Shu bois O'zbekiston mustaqillikga erishgan dastlabki kunidan boshlab bu borada bir qator ijobiy amaliy ishlar olib borilmoqda va davom ettirilmoqda. Shu bois O'zbekiston 2011-yilda 113 ta investitsion loyiha bo'yicha jami 3,013 mlrd. \$ miqdorida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishni rejalashtirgan edi. Bu miqdordan 801,2 mln. \$ qismini hukumat kafolati ostidagi 42 loyiha bo'yicha **chet el kreditlari**, 2,212 mlrd. \$ qismini esa 71 loyiha bo'yicha **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** tashkil qilgan bo'lsa, xorijiy investitsiyalarning katta qismi – 1,925 mlrd. \$ mablag' 30 loyiha bo'yicha issiqlik-energetika sektoriga yo'naltirilgan edi. Jumladan, 1,845 mlrd. \$ miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini 26 loyiha bo'yicha neft-gaz sohasida o'zlashtirish ko'zda tutilgan edi.⁴⁹

Xususan, Xitoyning CNPC kompaniyasi umumiy qiymati 2,98 mlrd. \$ miqdorida baholangan "Markaziy Osiyo-Xitoy" gazquvurining O'zbekistondagi qismini qurish uchun 482,3 mln. \$ investitsiya qilmoqda.

Rossiyaning "Lukoil" kompaniyasi esa joriy yilda O'zbekistonda umumiy qiymati 4,3 mlrd. \$ miqdorida baholanayotgan ikki mahsulotni taqsimlash shartnomasini (*ruscha, CPII*) realizatsiya qilish uchun 827,2 mln. \$ miqdorida investitsiya kiritadi. Xususan, Buxoro viloyatidagi Qandim guruhiga kiruvchi gaz konlarini o'zlashtirish loyihasi va Ustyurtda geologik razvedka ishlarini olib borish

uchun 601,1 mln. \$, Janubiy G'issordagi konlarni qazib olish uchun 226,1 mln. \$ miqdorida investitsiya kiritadi.

Malayziyaning "Petronas" kompaniyasi uglevodorod konlarida qazish ishlarini davom ettiradi, xususan Ustyurt va Surxondaryo viloyatidagi konlarni qazib olish uchun 80 mln. \$ mablag' yo'naltiradi.

"Kogas" boshchiligidagi koreys kompaniyalarining konsorsiumi O'zbekistonning shimoli-g'arbida umumiy qiymati 3,5 mlrd. \$ lik Ustyurt gaz-kimyo kompleksini qurishni boshlaydi. Bu yili ushbu loyiha asosida 444 mln. \$ miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

Investitsion dasturga muvofiq, 2011-yilda to'qimachilik sanoatida 11 loyiha bo'yicha 116,9 mln. \$ hajmida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda.

Telekommunikatsiya sohasida mobil aloqa operatorlari tomonidan 68 mln. \$ mablag' o'zlashtirish maqsad qilingan.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish sektorida Germaniyaning "Knauf" kompaniyasi Buxoro viloyatida umumiy qiymati 48 mln. \$ lik gipsokarton plitalarini ishlab chiqaruvchi zavod qurilishini yakunlaydi. "Bekobodsement" zavodini modernizatsiya qilish uchun esa 58,7 mln. \$ mablag' yo'naltiriladi.

Transport sektorida joriy yilda 162,3 mln. \$ hajmida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda. "O'zbekiston havo yo'llari" MAK yangi samolyotlar sotib olish uchun 150,4 mln. \$ miqdorida xorijiy kreditlarni jalb qilishni rejalashtirmoqda.

Ijtimoiy sohaga ushbu yilda 127,4 mln. \$ miqdorida xorijiy investitsiyalar yo'naltiriladi.

Avval xabar qilganimizdek, 2010-yilda O'zbekiston 99 loyiha bo'yicha jami 2,985 mlrd. \$ miqdorida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishni reja qilgan edi. 2009-yilda esa o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar miqdori 2008-yilga qaraganda 1,68 marta ortgan va 2,1 mlrd. \$ ni tashkil qilgan edi.

Bunday ijobiy o'zgarishni markazlashgan eksport hajmining oshishi bilan izohlash mumkin. Ya'ni 2010-yilda eksportni qo'llab-quvvatlash borasida amalga

oshirilgan chora-tadbirlar va jahon bozorida respublikamizning asosiy eksport mahsulotlariga talabning oshishi hamda ular narxlarining ko'tarilishi natijasida eksport hajmi 2009-yilga nisbatan 10,8 foizga oshib, 13 044,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shu jumladan, mashina va uskunar eksporti 2,1 barobarga, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 77,1 foizga, qora va rangli metallar eksporti 52,7 foizga oshdi. 2010-yilda import hajmi 8 797,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Jami import hajmida mashina va uskunar importi 56,5 foizni, kimyo mahsulotlari importi 11,1 foizni, oziq-ovqat mahsulotlari importi 9,0 foizni, qora va rangli metallar importi 6,3 foizni hamda xizmatlar importi 4,4 foizni tashkil qildi.⁵⁰

Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon standartlari darajasida ekanligi va ishlab chiqarishning modernizatsiyalashtirilganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida, iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish hamda rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu avvalambor mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishini ta'minlab, aholining ish bilan bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy muammolarini yechish imkoniyatini beradi. Shu bois ham vatanimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda investitsion muhitning jozibadorligi natijasida investorlar iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun ko'plab miqdorda sarmoya kiritmoqdalar. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritilar ekan, investitsiyalardan samarali foydalanish uchun ularning yo'nalishi va taqsimlanishini to'g'ri tashkil etish va shu asosda tartibga solish yo'llarini izlab topish masalasi yuzaga keladi. Bundan ko'rinadiki, tashqi investitsiyalarni, shu jumladan chet el sarmoyasini keng ko'lamda jalb qilish hozirgi milliy iqtisodiyot tarkibini qayta qurish maqsadlariga erishishning zarur sharti bo'lib, kiritilgan

- 104 -1321/3/2014—
⁵⁰ Manba: "Bozor, pul va kredit" ilmiy-amaliy oylik jurnali, 1/2011 soni. 14-25 betlar.

investitsiyalardan foydalanishni to'g'ri tashkil qilish va tartibga solish foydalanilayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Keyingi vazifa investitsion jarayonlar boshqaruvini to'g'ri tashkil etishdan iborat bo'lib, bu sohada ijobiy ishlar amalgam oshirilgan bo'lsada, hal etishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar mavjud.

Jumladan:

- Kiritilayotgan investitsiyalarni diversifikatsiyalash ya'ni kiritilayotgan investitsiyalarni tarmoqlararo to'g'ri taqsimlanishini asoslash;
- Investitsiyalarni tarmoqlararo (korxonalararo) taqsimlanishida aniq ilmiy asosda chegaraviy miqdorlarni (quyi va yuqori chegaralari) belgilash. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, barcha jarayonlarni chegarasi bo'lgani kabi, xorijiy investitsiyalardan foydalanishning ham chegarasi mavjud bo'lib, bu hozirgi mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va yangi texnika-texnologiya bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan jamg'armalar tashkil topgan bir davrda ularning yo'nalishi hamda taqsimlanishini to'g'ri tashkil qilishni taqozo etadi. Bu esa, barcha resurslarning chegaralanganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, kiritilayotgan investitsiyalarni ham foydali bo'lishini ta'minlaydi;
- Jalb qilingan investitsiyalarning iqtisodiy tarmoqlararo (korxonalararo) optimal taqsimlanishini yo'lga qo'yish;
- Investitsiyalardan samarali foydalanish samaradorligini oshirishda yuzaga keladigan xatarlilik va tavakkalchilik darajalarini aniq ilmiy hisobini aniqlash;
- Iqtisodiyot tarmoqlariga taqsimlanayotgan investitsiyalarning ekonometrik va iqtisodiy matematik modellar tizimini ishlab chiqish;
- Ishlab chiqilgan ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellar asosida respublikamizga jalb qilinadigan investitsiyalarning kelajakdagi hajmini prognoz qilish hamda tarmoqlararo taqsimlanishini belgilash;
- Investitsiyalar taqsimlanishini ko'p variantli stenariyli yechimlarini maxsus kompyuter dasturlari (LPX, Mathcad, PER, Ewiev, Statistica) asosida optimal rejalarini hisoblab chiqish va ularga asosan samarali xo'jalik qarorlarini qabul qilish;

- Respublika milliy iqtisodiyotida investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishining mavjud usullarini zamonaviy ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellash vositalari asosida takomillashtirish.

Ushbu keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni va investitsiyalardan samarali foydalanishda yuzaga keladigan xatarlarni oldindan ko'ra bilish va ilmiy asoslangan chora tadbirlar ishlab chiqish, korxona faoliyatining barqaror o'sishini hamda global raqobatbardoshlikka erishishni ta'minlash – investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish hamda ular orasidagi miqdoriy bog'lanishlarni aniqlash taqozo qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kiritilayotgan investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishining investitsiya samaradorligini oshirishda tavakkalchilik va noaniqlik munosabatlarini e'tiborga olgan holda mos dinamik modellar asosida o'rganish nafaqat ilmiy-nazariy, balki muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora tadbirlarini belgilashda tashqi omillar ta'sirini ham har tomonlama hisobga olish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai nazaridan shakllantirish hamda ularni izchil amalgam oshirish taqozo etiladi. Bu boradagi chora-tadbirlar asosida iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini hamda iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash, tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish mehnat unumdorligi, moddiy-texnika hamda xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishdan tashqari, investitsiya yo'nalishini va iqtisodiy tarmoqlararo taqsimlanishini to'g'ri tashkil etish bilan ham bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda investitsiyalar ko'proq undan olinadigan daromadni hisobga olgan holda kiritilmoqda. Bu esa, ayrim hollarda oshiqcha mablag'larni foydasiz turib qolishini yoki investitsiya kiritilishida yuzaga keladigan tavakkalchilik hamda xatarlilik darajasini aniqlamasdan oqibatida ishlab chiqarish jarayonining to'liq quvvat bilan ishlash imkoniyatini chegaralanib qolishiga olib kelmoqda. Bunday muammoni bartaraf etish uchun albatta, investitsiyalash va ulardan foydalanish jarayonlarini

chuqur o'rganish , unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik va iqtisodiy-matematik usullar asosida tahlillarni olib boorish, tahlil natijalarini umumlashtirgan holda ilmiy asosda investitsiyalarning iqtisodiy tarmoqlararo taqsimlanishi va to'g'ri yo'nalishining (ma'lum bir tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiya boshqa tarmoqlarga nisbatan ko'proq daromad keltirishi mumkinligi) adekvad modellari tizimini yaratish lozim bo'ladi.

Shuningdek, ushbu modellar tizimi tavakkalchilik va xatarlilik darajalarini, kiritiladigan investitsiya miqdori chegaralarini, ya'ni qanday miqdorda kiritiladigan investitsiya miqdori tanlab olingan tarmoqda optimal qiymatda b'lishini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilishi loyihada qo'yilgan maqsadni yanada takomillashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, ishlab chiqilgan modellar tizimini kompyuter texnologiyasida yechish imkoniyati hisob-kitob jarayonlarini yengillashtirishga, vaqtdan unumli foydalanishga hamda aniqlikka erishilishiga olib keladi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash bugungi kunda eng muhim ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida "...mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgarishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda, ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor"⁵¹, deb ta'kidlab o'tdilar.

O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar kiritishning yillik o'sish sur'atlari 2005-2010 yillar davomida o'rtacha yillik 16,9 foizni tashkil etgan edi.

Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9,7 mlrd. AQSh dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki

- 107 -1321/3/2014—

⁵¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi – T: O'zbekiston 2010. 6-bet.

mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etdi. Ushbu investitsiyalarning salkm 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan 38 foizga yaqini asbob uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. Bu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan-tog'ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 2,4 mlrd. AQSh dollardan ziyodni tashkil etdi.⁵²

Investitsiya dasturi doirasida 2010 yilda 200 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Bundan tashqari, 2010 yilda "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida xorijiy investorlar bilan bitimlar doirasida 19 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishga kirishildi.

Xususan, Buxoro viloyatida ham sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jixozlash bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Viloyatda o'tgan yili jami 835 009,7 mln. AQSh dollarlik xorijiy investitsiyalar va ekreditlar o'zlashtirildi. Birgina sanoat salohiyatini oshirish dasturi doirasida jami 335 ta loyiha amalga oshirilib, 7077 ta ish o'rinlari yaratildi, 15,6 mlrd. So'mlik va 47,1 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar korxonalarga jalb qilindi.

O'tgan yili yil davomida sanoat tarmog'ida 27 ta yangi turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Shundan "Buxorogilam" qo'shma korxonasi negizida akril ip-kalava, "Shaxboz Shaxrom" xususiy korxonasida sintetik ip-kalava ishlab chiqarila boshlandi. "Tekstil Spekturm Kolors" qo'shma korxonasi negizida ip-kalava ishlab chiqarishni kengaytirish, "Buxoro-Qorako'l" xorijiy korxonasi negizida qorako'l teridan kiyimlar, "Buxoro DOZ" mas'uliyati cheklangan jamiyati negizida shifer ishlab chiqarish loyihalari nihoyasiga yetkazildi.

Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan 8ta korxonadagi 9ta loyiha hisobiga jami 26,7 mlrd. So'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ichki bozorga sotildi va 16 mln. AQSh dollari miqdorida valyuta iqtisod qilinishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan "2011-2015 yillarda O'zbekiston

- 108 -1321/3/2014_____

⁵² Manba: "Bozor, pul va kredit"//2011 №5 20-21 bet.

sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Dasturiga asosan, sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Besh yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga ko'paytirishni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bu borada mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatseftika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish hisobidan ushbu tarmoqlarda ikki baribardan ziyod o'sishga erishiladi. Shuningdek, shlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash ikkinchi muhim ustuvor vazifa etib belgilandi.

2011 yilning o'zida respublika bo'yicha 35dan ortiq yirik ishlab chiqarish korxonasini qurishni yakunlash va foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Bu borada Buxoro viloyatida 2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari Dasturiga ko'ra viloyat bo'yicha umumiy qiymati 60,3 mln. AQSh dollari miqdoridagi 15ta yirik va 238 ta kichik loyihalar amalga oshiriladi. Dasturga binoan, 5 yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga uning ulushi 2010 yildagi 18 foizdan 2015 yilda 28 foizga yetkaziladi. Viloyat uchun to'qimachilik sohasida tayyor mahsulot eksportiga yo'naltirilgan korxonalarni tashkil qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda "Buxoroteks" aksiyadorlik jamiyatining bitmay qolgan inshootlari va Jondor, Romitan, Shofirkon tumanlaridagi qurilishi tugallanmagan ob'ektlariga xorojijy investorlarni jalb qilish asosida korxonalar tashkil qilinib, ularda 2400 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Buxoro shahrida jami 250 ming juft poyabzal ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan korxona yangidan tashkil qilinadi.

Umuman, 5 yilda viloyatda sanoat ishlab chiqarish 2 barobarga o'sishi, shundan hududiy sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmini 2,5 martaga oshirish rejalashtirilgan.

Respublikada hamda Buxoro viloyati sanoat korxonalarida investitsiyaviy faoliyatni oshirish uchun investitsiyaviy siyosatni to'g'ri amalga oshirish juda muhim. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- Iqtisodiyotning ustuvor sohaslarini moliyalashtirishda xorijdan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish hamda davlat kafolati ostida lingan kreditlarni faqat uzoq muddatlarga, ya'ni 20 yildan 40 yilgacha, imtiyozli stavkalarda, xususan 0,5-2 foizgacha bo'lgan stavkalarda jalb qilish;
- Investitsiyalarni asosan import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tom ma'noda uning diversifikatsiya darajasini oshirish tufayli yangi ish o'rinlarini yaratishga safarbar etish;
- Import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan Mahalliyashtirish dasturini jadal sur'atlarda rivojlantirish.


Ushbu vazifalarni amalga oshirilishi O'zbekistonda investitsion faollikmi yanada jadallashuviga va sanoatni rivojlanishiga o'z xissasini qo'shadi.

2011 yilda hududiy investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishini quyidagi jadvalda ko'rib o'tamiz. Buyerda ko'rinib turibdiki, loyihalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, 148ta loyiha yengil sanoatni rivojlantirishga, 148 ta loyiha qurilish materiallarini ishlab chiqarishga, 102 ta loyiha go'sht va sut mahsulotina qayta ishlashga, 65 ta loyiha parrandachilik sohasida tuxum va go'sht yetishtirishga, 43 ta neft va kimyo yo'nalishidagi mahsulotlarga, 42 ta loyiha issiqxona tashkil etishga, 40 ta loyiha non va un mahsulotlarini ishlab chiqarishga, 37 ta loyiha oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga, 30 ta loyiha konditer mahsulotlarini ishlab chiqarishga, 27 ta loyiha meva-sabzavotni qayta quritishga, 19 ta terini qayta ishlab chiqarish va poyabzalni ishlab chiqarishga, 17 ta yog'ochni qayta ishlash va mebel ishlab chiqarishga, 12 ta xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishga yo'naltirilayotganinig guvohi bo'lamiz.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2010 yilda Toshkent shaxri, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon va Farg'ona viloyatlariga yo'naltirilgan investitsion mablag'larning salmog'i yuqori bo'lganini ko'ramiz, 2011 yilda esa o'tgan yilga nisbatan Samarqand, Sirdaryo, Buxoro, Namangan viloyatlariga yuqoriroq investitsion mablag'lar jalb qilingan.

21-rasm

2011-yilda hududiy dasturga kiritilgan loyihalarning tarmoqlar bo'ycha taqsimoti.⁵³



Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston" qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi.

Shular qatorida "Zenit elektroniks" qo'shma korxonasida "Samsung" kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

"Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida "MAN" yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazildi.

Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo etish, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi yo'nalishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga kirdi.

Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zona muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi, uning hududida yangi tashkil etilgan korxonalarda spidometrilar, avtomobillar uchun o'tkazgichlar, kompressorlar, raqamli televizion tyunerlar, energiyani tejaydigan lampalar, yoritish uskunalar, diodli lampalar, modemlar, polietilen va polipropilen quvurlar, kosmetika vositalari hamda tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston milliy avtomobil magistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdagi yo'lga zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruksiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaharlari aeroportlarining mahalliy yo'nalishlarda xizmat ko'rsatadigan yo'lovchi terminallari foydalanishga topshirildi.

Toshkent – Samarqand yo‘nalishida mazkur ikki shahar o‘rtasidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o‘tadigan, yuqori tezlikda harakat qiladigan “Talgo-250” yo‘lovchi elektr poyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Bu poyezdlardan foydalanish maqsadida temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yo‘llar qaytadan tiklandi, 68 kilometrdan iborat yangi temir yo‘llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temiryo‘l vokzallari rekonstruksiya qilindi va qaytadan jihozlandi.


O‘tgan yil mobaynida telekommunikatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirish ishlari davom ettirildi. Xususan, Jizzax – Bulung‘ur yo‘nalishi bo‘ylab 73 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyasi o‘tkazildi, mobil aloqa va Internet tarmog‘i ko‘lami tobora faol kengayib bormoqda. Yurtimizda aholiga raqamli televideniye xizmati ko‘rsatish hajmi 38 foizga yetgani ham shu boradagi ulkan ishlarimizning amaliy natijasidir.

2011-yilda logistika markazlari faoliyati jadallashdi. Xususan, “Navoiy xalqaro intermodal logistika markazi” orqali 50 ming tonna yuk tashildi. “Angren logistika markazi” yopiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan Qamchiq dovoni orqali 4 million 200 ming tonna, ya’ni 2010-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘p yuk tashildi.⁵⁴

⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.

**2009-2014 yillarda amalga oshirish ko'zda tutilgan investitsion loyihalar
dasturi**

(Iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida, mln. doll.)⁵⁵



"Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasi	596
Neft va gaz tarmog'i	21 536
Energetika	4 517
Tog'-kon va metallurgiya sanoati	1 876
Kimyo sanoati	3 078
Mashinasozlik	1 176
Yengil sanoat	870
Qurilish mollarini ishlab chiqarish	983
Transport va infratuzilma	5 787
Boshqalar	2 101

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan tartibga solish uchun ancha muvaffaqiyatlarga erishildi. Iqtisodiyotda ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatdan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni , ko'proq iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Xalqaro va milliy darajada investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirishda yetarli tajribalar mavjud. Bu masalada boy tajribaga ega bo'lgan Jahon banki investitsiyaviy faoliyat olib borishda sezilarli natijalarga erishgan.

Investitsiyalash jarayonini amalga oshirishda moliya tizimi muhim o'rin egallaydi.

Iqtisodiy o'sishga erishishda investitsiya hajmini ko'paytirish, yo'nalishlari va tuzilmalarini to'g'ri tanlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday korxona tanlash kerakki, ular o'zini tezda qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olishlari kerak.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun investitsiya hajmini keskin ko'paytirish lozim. Investitsiyalarni samarali tashkil etish va moliyalashtirilishida hali hal qilinishi zarur bo'lgan qator vazifalar borki, ular mavjud qonun hujjatlardan to'g'ri foydalanadigan va umuman investitsiyalardan to'g'ri foydalanish bo'yicha kadrlarni tayyorlash ular malakasini muntazam oshirishni talab qilmoqda.

Shuningdek Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1. Investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishga erishish;

2.Qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan:

- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- Mineral xomashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

O'tgan davr mobaynida milliy iqtisodiyotni shakllantirish va uni tubdan isloh qilish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining eng muhim omili va asosini tashkil etganini alohida ta'kidlash zarur. Bu borada bizning oldimizda respublika va aholi ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg'i-energetika resurslari, iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ishonchli tarzda qondirishdek dolzarb hayotiy vazifa turadi.

Xorijdan jalb qilinadigan investorlar uchun turli kafolatlar beruvchi qonun va me'yoriy hujjatlar yaratildi va ularbozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan takomillashtirilib borilmoqda. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish va investitsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, doimiy tarzda takomillashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida , mamlakat ichki investitsiya salohiyatining yuksalishini va xorijiy investitsiyalar oqimining yildan-yilga ortib borishini, shunga mos ravishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, shu jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmining ham o'sib borishini ta'minlamoqda. Ya'ni:

1. Investitsiya jarayonini faollashtirish, investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor sohalariga yo'naltirish;
2. Tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish;
3. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
4. Texnik va texnologiyalarni asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish;
5. Teknik va texnologik qayta jihozlash;
6. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash;
7. Chet el investitsiyalarni keng jalb qilish;
8. Xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish;
9. Infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini komplekt va jadal ravishda rivojlantirish;
10. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni jihozlash;
11. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik"ni salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag'batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlashda xorijiy investorning pul shaklidagi ulushini yangidan tashkil etilayotgan xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar katta imtiyozlar berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Izbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 1998. 24 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining yangi tahriri, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2007 yil, 12 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori 2007 yil 4 yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori 2007 yil 7 noyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori yil 15 dekabr
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori 2011 yil 27 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan "2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori 2011-yil 27-dekabrda imzolangan.
9. 2010-yilda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 12-martdagi PQ-1072-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2009-2014 - yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi»
10. 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan "2011-2015 yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

to'g'risida"gi dasturi

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining "2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida" Qarori 2009 yil 13 fevral.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'gridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni 2005 yil 11 aprel.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2005 yil 14 iyun.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrifyrmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni 2005 yil 20 iyun.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida"gi Farmoni 2005 yil 24 iyun.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni 2007 yil 6 fevral.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov//To'g'ridan-to'g'ri xorijiy **investitsiyalar** jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Farmoni// 2012 yil 10 aprel

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida Farmoni 2012 yil 13 aprel

II. Prezident asarlari

1. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilgan yil bo'ladi. "Xalq so'zi" gazetasi, 20 yanvar 2012 yil.

2. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini

yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”//Xalq so’zi, 2010 yil 22 yanvar.

3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi.// Xalq so’zi, 2010 yil 13 noyabr.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitidagi Mingyillik rivojlanishi maqsadiga bag’ishlangan yalpi majlisidagi nutqi.// Xalq so’zi. 2010 yil 21 sentyabr.

5. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari”. – T.: O’zbekiston, 2009.

6. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga o’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasini// Xalq so’zi, 2009 yil 14 fevral.

III. Sohaga oid me’yoriy hujjatlar

1. O’zbekiston Respublikasi hukumati va Markaziy banki hamda Xalqaro Valyuta jamg’armasining qo’shma bayonoti// Xalq so’zi, 2008 yil 25 dekabr.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. G.G’. Nazarova, N.M.Salixova. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O’quv qo’llanma. T.: TDIU, “Iqtisodiyot”, 2011. - 320 b.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farofonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. – T.:Iqtisodiyot. – 2011.

3. G.G’. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. T.: TDIU, “Iqtisodiyot”, 2011.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nuqtasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: Iqtisodiyot. – 2010. 147 bet.
5. N.N. Imomov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. (O'quv qo'llanma)-T.:, 2011. -188 bet.
6. R.X. Karalbayeva. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, - T.: Cho'lpon nomidaginashryot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 124 bet.
7. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
8. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.
9. A.A. Isadjanov. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. T.: JIDU, 2008.
10. Shodmonov Sh.Sh, G'afurov U.V. Globallashuv jarayoni va moliyaviy inqiroz sabablari.//Adolat, 2009 yil 27 fevral.
11. Воронин В.П., Кондракова В.Г., Подмолодина И.М. Мировая экономика. М. 2008.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Xodiyev B.Y., Bekmuradov A.Sh., G'afurov U.V., Tuxliev B.K., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farofonligini yanada chuqurlashtirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma – T.: Iqtisodiyot. – 2010 yil.
2. Xodiyev B.Y., Bekmuradov A.Sh., G'afurov U.V., Tuxliev B.K., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va

choralari” nomli asarini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma – T.: Iqtisodiyot. – 2019 yil. 120 bet.

3. Мировая экономика: прогноз до 2020 года /под ред. акад. А.А. Дынкина – М.: Магистр, 2008.

4. Сиражиддинов Н. Проблемы повышения эффективности внешней торговли Узбекистана. Т.: УМЭД, 2004.

5. В. G’oyibnazarov, Sh. Otajonov. O’zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda ilg’or ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarga asoslangan kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari. // Iqtisodiyot va ta’lim. 2011, №5.

6. Эпоха перемен. //Экономическое обозрение, 2011, №7-8 (141).

7. Г.Федяшева, Е.Орлова. Промышленность Узбекистана за годы независимости: от сырьевых отраслей к высокотехнологичному производству. //Бозор, Пул ва Кредит. 2011, №10 (173).

8. N.Botirova. Sanoatlashish jarayonini amalgam oshirishda tashqi iqtisodiy aloqalarning ahamiyati.// Iqtisodiyot va ta’lim. 2010, №4.

9. Bhagwati J. Termites in the Trading Sistem: How Preferential Trade Agreements are Undermining Multilateral Free Trade. Oxford, 2007.

12. Keet P., De Villiers R. South Africa and the Non Aligned Movement in an Area of Regionalization and Globalization. Pretoria, 1999.

13. Byee M. Unions douanaieres et donnees nationales. 1950. Viner J. The Customs Union Issue. N.Y. 1950.

VI. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar

1. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali 2010 2011 yillar sonlari

2. “Xalq so’zi” gazetasi 2011 2012 yillar sonlari

3. “Bozor, pul va kredit” jurnali.

4. “Davlat va jamiyat boshqaruv” jurnali.

5. “Soliq va bojxona xabarlari” moliyaviy-iqtisodiy gazeta.

6. “Birja.Ekspert”// 2011 yigi sonlari

7. “Jamiyat va boshqaruv”// 2011 yilgi sonlar.

8. “Ijtimoiy fikr-inson huquqlari” 2011 yilgi sonlar.
9. “O’zbekiston qishloq xo’jaligi” 2010 yilgi sonlari.
10. “Бизнес-Вестник Востока 2010 yilgi sonlari.
11. “Soliq to’lovchilarning jurnali. 2010 yilgi sonlari.
12. “Экономическое обозрение” jurnali 2010-2011 y.y. sonlari
13. “Мировая экономика и международные отношения” журналы.
2010-2011 йй. сонлари
14. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1991-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник. – Т.: «Узбекистан». 2011.
15. O’zbekiston Respublikasi statistic axborotnomasi.
2011/2012
16. World Economic Outlook. IMF.
17. UNIDO Industrial Development Report .
18. IMF.World Economic Outlook.

VII. Internet saytlar

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz
3. www.mfer.uz
4. www.UzA.Uz.
5. www.review.uz
6. www.cer.uz
7. www.businesspress.ru
8. www.mfa.uz
9. www.stat.uz
10. www.google.uz

Ilovalar

O'zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan %da)


Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Yalpi ichki maxsulotning o'sishi	9,5	9,0	8,1	8,5	8,3
Sanoat maxsulotining o'sishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3
Xizmat ko'rsatish hajmi	20,6	21,3	12,9	13,4	
Qishloq xo'jaligi	6,1	4,5	5,7	6,8	
Savdo sohasi	21,0	7,2	16,6	14,7	
Davlat byudjeti profitsiti YaIMda	+1,1	+1,5	+0,2	+0,3	
Inflyatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,3	
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqining oshishi	44,2	40,0	40,0	32	
Aholi jon boshiga real daromadlarning oshishi	27,0	23,0	26,5	23,5	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ўзбекистон Республикасининг 2011 йилда импорт структураси

		млн.долл.	
ИМПОРТ	ЖАМИ		
	2011й.	% 2010 йилга нисбатан	% йил яқунига нисбатан
Жами:	10510	114,5	100
оziқ овқат махсулотлари	1300,2	135	12,4
кимёвий махсулотлар ва улардан ясалган буюмлар	1397,3	110,4	13,3
ёқилғи ва нефт махсулотлари	847,2	129,4	8,1
кора ва ранли металллар	848,6	114,4	8,1
машина ва ускуналар	4341,9	107,7	41,3
хизматлар	561,5	114,5	5,3
бошқалар	1213,3	118,1	11,5

**Ўзбекистон Республикасининг 2011 йилда импорт
структураси**




**O'zbekiston Respublikasida 2016 yilgacha bo'lgan davrga turizm
sanoati ko'rsatkichlarining bashorat qiymatlari**

Yillar	Tuzizmdan olinadigan daromad, ming Y	Respublikaga tashrif buyurgab turistlar soni, kishi X1	Xorijiy turistlatga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi ming X2	Turizm sohasiga umumiy investitsiyalar hajmi ming X3
2010	2204946,8	1150410,8	2320013,3	346174,4
2011	2333114,7	1211047,1	2459097,7	366438,6
2012	2461282,5	1271683,4	2598182,1	386702,8
2013	2589450,3	1332319,7	2737266,5	406967,0
2014	2717618,1	1392956,0	2876350,9	427231,2
2015	2845785,9	1453592,3	3015435,3	447495,4
2016	2973953,7	1514228,6	3154519,7	467759,6

Manba: Abidova D.I. Mehmonxona xo'jaligida boshqaruv jarayonlarini modellashtirish mavzusidagi i. f. N. Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2010, 18bet.

**Ўзбекистон Республикасида 2016 йилгача бўлган даврда туризм саноати
кўрсаткичларининг башорат қийматлари**



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy **investitsiyalar** jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy **investitsiyalar** ishtirokida 4,2 mingtadan ko'proq korxona tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko'proq asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy **investitsiyalar** o'zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollariga qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy **investitsiyalar** jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag'batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida:

1. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki, respublika qonunchiligi tomonidan 1-ilovaga muvofiq xorijiy investorlar hamda xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar uchun keng ko'lamdagi kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar tizimi yaratilgan.

2. Belgilab qo'yilsinki, xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq qiymati 50 million AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag'lari hamda boshqa **ichki** moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012 yilning II choragidan boshlab: 2-ilovaga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlari va

sohalarida faoliyat yuritayotgan; Toshkent shahri va Toshkent viloyati istisno etilgan holda, respublikaning barcha mintaqalarida joylashtiriladigan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga tatbiq etilsin.

5. Vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, tijorat banklari tomonidan xorijiy investorlar hamda xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalarining faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha talablar va cheklovlar o'rnatilishi qat'yan taqiqlansin va bu hol qonunga xilof deb hisoblansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy investorlarning, xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalarining huquq va kafolatlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari so'zsiz rioya etishlari ustidan qattiq nazorat o'rnatilsin hamda qonunchilik buzilishining oldini olish va aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rsin.

6. Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender (tanlov) savdolarini o'tkazish bo'yicha Davlat komissiyasiga (R.S.Azimov) xorijiy investorlarning buyurtmanomalari bo'yicha xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalarni barpo etish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining balansida bo'lgan past likvidli obyektlarni aniq investitsiya majburiyati ostida investor bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish yo'li bilan tanlov o'tkazmasdan "nol" xarid qiymati bo'yicha sotish huquqi berilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, **Ichki** ishlar vazirligi vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining buyurtmanomalari bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashayotgan xorijiy kompaniyalarning mansabdor shaxslari va mutaxassislariga 12 oy muddat bilan kirish vizalari hamda ko'p martalik vizalar rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, **investitsiyalar** va savdo vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bankni jalb etgan holda xorijiy investorlarga o'zlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari uchun Davlat budjeti va uning ijrosi, pul-kredit siyosati, tashqi savdo hamda boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlardan tizimli asosda belgilangan tartibda keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, **investitsiyalar** va savdo vazirligi bilan birgalikda xorijiy investorlar hamda xorijiy **investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar uchun berilgan kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklarga doir qonun hujjatlarining amalda ro'yobga chiqarilishi yuzasidan tizimli monitoring o'rnatilsin hamda berilayotgan imtiyozlar va afzalliklarga vazirliklar, idoralar va boshqa ijrochilar tomonidan rioya etilmasligi holatlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga har chorakda axborot kiritib borsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoniga 2-ilovaga muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, **investitsiyalar** va savdo vazirligi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston

Respublikasi

Prezidenti

I.Karimov

Toshkent shahri, 2012 yil 10 aprel

- 129 -1321/3/2014_____

“Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

Yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek, Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, **investitsiyalar** va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Toshkent viloyati hokimligining Toshkent viloyatida “Angren” maxsus industrial zonasini (keyingi o‘rinlarda – “Angren” MIZ deb yuritiladi) 1-ilovaga muvofiq hududlar chegaralari doirasida barpo etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi Toshkent viloyati hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda “Angren” maxsus industrial zonasi tarkibiga kiritiladigan yer maydonlarining chegaralarini aniq belgilasin va yerlarning tegishli ravishda ajratilishini ta‘minlasin.

Belgilab qo‘yilsinki, “Angren” maxsus industrial zonasi tarkibiga kiritilgan yer maydonlari Toshkent viloyati hokimligining bevosita tasarrufida bo‘ladi.

2. Quyidagilar “Angren” maxsus industrial zonasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari etib belgilansin:

ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun **investitsiyalar**, eng avvalo to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlarni shakllantirish;

maxsus industrial zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash, mineral-xomashyo resurslarini yanada chuqurroq qayta ishlash bo‘yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish;

maxsus industrial zona va umuman respublika korxonalari o‘rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o‘rnatish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda samarali foydalanish, “Angren” logistika markazi salohiyatini, yuklarni avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish hamda ulardan keng ko‘lamda foydalanishni ta‘minlash.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

“Angren” maxsus industrial zonasining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etadi va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin;

“Angren” MIZ faoliyat yuritadigan muddat mobaynida uning hududida maxsus soliq tartibi va bojxona imtiyozlari amal qiladi;

“Angren” MIZ qatnashchisi maqomi “Angren” maxsus industrial zonasi Ma’muriy kengashining qarori bilan beriladi.

4. “Angren” maxsus industrial zonasining Ma’muriy kengashi 2-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil qilinsin.

“Angren” maxsus industrial zonasi Ma’muriy kengashining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat deb hisoblansin:

korxonalarga “Angren” MIZ qatnashchisi maqomini berish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

“Angren” MIZda loyihalarni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan vazirliklar va idoralarning, xo‘jalik birlashmalarining loyiha, tender va kontrakt hujjatlarini o‘z vaqtida tayyorlash hamda ularning ekspertizasini o‘tkazish borasidagi ishlarini, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining “Angren” MIZ faoliyati bilan bog‘liq masalalardagi ishlarini muvofiqlashtirish;

ishlamayotgan korxonalarni va davlat egaligidagi mol-mulkni “Angren” MIZ qatnashchilariga nolga teng xarid qiymati bo‘yicha sotish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

“Angren” MIZning samarali faoliyat yuritishini tashkil qilish, “Angren” MIZ Direksiyasini shakllantirish va uning faoliyati ustidan nazorat olib borish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. “Angren” maxsus industrial zonasi qatnashchilari:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, ularning mol-mulkiga solinadigan soliqni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lashdan, kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan;

respublikada ishlab chiqarilmaydigan, loyihalarni amalga oshirish doirasida “Angren” MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to‘lovlari (bojxona yig‘imlaridan tashqari) to‘lashdan ozod qilinsin.

Belgilab qo‘yilsinki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiyalarning hajmiga qarab 3 yildan 7 yilgacha muddatga beriladi, shu jumladan ekvivalenti:

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha bo‘lganda – 3 yil muddatga;

3 million AQSH dollaridan ortib 10 million AQSH dollarigacha bo‘lganda – 5 yil muddatga;

10 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lganda – 7 yil muddatga beriladi.

6. Toshkent viloyati hokimligi “Angren” maxsus industrial zonaning Ma’muriy kengashi qarorlari bo‘yicha belgilangan tartibda “Angren” MIZda loyihalarni amalga oshiruvchi investorlar uchun quyidagilarni ta’minlasin:

birinchi navbatda sobiq sanoat zonalarining foydalanilmayotgan hududlarida korxonalar qurish uchun yer maydonlarini o'z vaqtida ajratish;

muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlariga ulanish uchun barcha zarur ruxsatnomalarni "bir darcha" tamoyili asosida berish.

7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq "Angren" MIZda qatnashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun "O'zbekenergo" DAK, "O'ztransgaz" AK, Toshkent viloyati hokimligi bo'linmalari va boshqa muhandislik-kommunikatsiya xizmatlarini yetkazib beruvchilar kommunikatsiyalarni ishlab chiqarish maydonchalariga tutashtirgan holda kafolatli ulanishini ta'minlaydilar.

8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi "O'zbekenergo" DAK, "O'ztransgaz" AK, "O'zavtoyol" AK, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, "O'zkommunxizmat" agentligi, Toshkent viloyati hokimligi bilan birgalikda uch oy muddatda "Angren" maxsus industrial zonasi hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish dasturini ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda "Angren" MIZ Direksiyasini tashkil etsin va "Angren" maxsus industrial zonasi faoliyatini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilsin, unda "Angren" maxsus industrial zonasi to'g'risidagi Nizom hamda "Angren" maxsus industrial zonasi Ma'muriy kengashi haqidagi Nizomni tasdiqlash nazarda tutilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, **investitsiyalar** va savdo vazirligi Moliya vazirligi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov

Toshkent shahri, 2012 yil 13 aprel